

جدید

2025-yil 8-avgust
№ 32 (84)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

JADIDLAR OBRAZI
RASSOMLAR NIGOHIDA



(3-sahifada o'qing)

SIYOSAT

DO'STLIK VA HAMKORLIK IFODASI



Yakuniga yetayotgan haftaning qaynoq voqealaridan biri, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etishi va u kishiga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ordeni topshirilishi bo'ldi.

Bir davlat rahbarining boshqa davlat rahbarini taqdirlashi zaminida o'zaro hurmat va do'stlikni ifoda etish, hamkasbiga hurmatini izhor qilishdan ko'ra ulug'vor ma'nolar mujassam. Davlat boshqaruvi shakllariga qarab prezidentlar, parlament va hukumat rahbarlari, qirollar, imperatorlar, amirlar va din rahnamolari mamlakat ichkarisida va xalqaro maydonda o'z xalqi nomidan ish ko'radi. Demakki, davlat

rahbariga ko'rsatilgan izzat-ikrom bevosita o'sha mamlakat va xalqqa tegishlidir. Bu esa ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishi, turli tarmoqlarda hamkorlik qilish, turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarga birgalikda yechim topish imkonini oshiradi. Mazkur an'ana kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Oliy rahbarlarning bir-birini taqdirlashi davlatchilikning ilk kurtaklari yuz ochgan zamonlardan meros bo'lib

kelmoqda. Avvallari bu taqdirlash yer-suv, ekin-tikin va boshqa ko'rinishlarda bo'lgan. Keyinchalik elchilar hukmdorlar saroyiga oltin-kumush, olmos-u yoqut, nodir kitoblar keltirib, do'stlik tantanasini olqishlagan. Bora-bora davlat rahbarlari bir-biriga turli unvon va maqomlar bitilgan yoriqlar yubora boshlagan.

(Davomi 3-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Sultonmurod OLIM

YER O'RTASI

Ey O'rtayer dengizi, salom,
Bardamgina bormisan, omon?
Yana keldim seni sog'inib,
Tanidingmi ko'rganing zamon?

Bilmaslikka olma o'zingni,
Tiling bo'lsa, gapirsayding, kosh.
Sohilingga yetganda qadam,
Oyog'imga mavjlar qo'ydi bosh.

Esingdami, ilk bor Qibrida
Chillasida ko'rishdik qishning.
Men bag'ringga otdim o'zimni,
Taq-taigiga chidablar tishning.

Yana to'rt bor issiq kunlarda,
Baliq kabi bag'ringda suzdim.
Bu gal Haqdan so'rab, yolvorib,
Har yoz kelmak rejasin tuzdim.

Bahri muhit, yumsam ko'zimni,
Amerika bo'lar namoyon.

Sen orqali bog'lanar olam –
Afrika-yu Hindiston, Yapon...

Ataladi noming "O'rtayer",
Sirni aytar payti shu ondir:
Bilib qo'ysang, yomon bo'lmasdi,
Yer o'rtasi – O'zbekistondir.

Men – dengizsiz elning bolasin
Sen o'zingga bilma begona.
Karachiga tortib temir yo'l,
Biz yetamiz suvga mardona.

Tanimaslik qilma o'shanda,
Kema bilan bag'ringga yelsam.
To'lib-toshib, yurt ne'matlarin
Savdo uchun yo olib kelsam.

O'shanda sen bir meni emas,
El-u yurtim tanib olasan.
Nasimini tuyib keltirgan,
Vatanimni sevib qolasan.

Alanya, Turkiya.

SHU SONDA:

HAQ SO'ZGA SADOQAT

"...So'z afsungarining ko'pchilik she'rga sololmaydigan mavzularda ham so'zni malolsiz, yayratib qo'llashi, avvalo, voqeani butun mukammalligi bilan idrok etishida, voqea dramasi ko'ra olishida, uni rivojlantirib qayta yaratishni bilishidir. Shu bois Usmon Azim she'riyatda bir janrdan ikkinchisiga osonlik bilan o'tadi, she'rdan nasrga yoki dramatik asarga ham xuddi shunday qiynalmay o'tib ijod qiladi..."

(4-sahifada o'qing.)

KO'NGIL – XAZINA, KO'NGIL – BALO

"...Lev Tolstoyning "Asar gohida bir satr uchun yoziladi" degan so'zlari badiiyatning javharini anglashga yordam beradi. Mana shu javhar g'oya bilan birikib ketadi. Ijodkorning asl maqsadi shu satrlarga joylangan bo'ladi.

Zehn solib qaralsa, ayrim asarlarda ana shu kalit so'zni topish mumkin ekan. Biz bu so'zga shartli ravishda "shohsatr" deb nom berdik. Erkin A'zam asarlariga shu nuqtai nazar bilan yondashib, o'sha shohsatrni topish umidida yozuvchi asarlaridagi ba'zi o'rinlarga diqqat qaratdik..."

(4-sahifada o'qing.)

ILM YO'LI

OLIY TA'LIM ISLOHOTLARI: TANLOV IMKONIYATI KENGAYMOQDA

Dunyoning eng nufuzli oliygo'hlari asosan nodavlat shaklda faoliyat yuritgani holda, yurtimizda xususiy universitetlar haqidagi tasavvur keyingi o'n yillikda shakllandi. Albatta, buning turli sabablari, omillari bor. Ammo 2017-yildan sohaga davlat-xususiy sheriklik tamoyili kirib kelgach, ta'limda sifat va samaradorlik, raqobat keskin oshganini ham tan olish kerak.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda respublikamiz bo'ylab 75 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. Bunda abituriyentlarning o'qishga kirish ehtimoli qariyb 20/1 nisbatda bo'lib, ushbu omil iqtidorli yoshlarning oliy ta'lim

olish imkonini cheklagan haqiqat. Qolaversa, davlat tasarrufidagi muassasalar o'rtasida raqobat yo'qligi dunyoning "TOP-reyting"lariga kirish darajasiga ham soya tashlar edi.

Soha tubdan isloh qilina boshlagach, qisqa fursatda o'z samarasini bera boshladi. Xususan, 2021-yilga kelib yurtimizda oliy ta'lim muassasalari soni 131 taga, qamrov imkoniyati esa 25 foizga yetdi.

Bunda 2019-yil 8-oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

(Davomi 2-sahifada.)

TIBBIYOT



UMID HUJAYRASI

Qulog'iga chig'anoq qo'yib, dengiz tovushini tingladim, deydi ba'zilar. Ammo aslida u dengiz tovushini emas, vujudi bo'ylab harakatlanayotgan o'z qonining ovozini eshitayotgan bo'ladi.

Qon tanadagi ko'plab funksiyalarni bajaradigan suyuq to'qima bo'lib, mayda-yirik tomirlar orqali barcha a'zolar qatori quloqlargacha ham yetib boradi. U qon aylanish sistemasi bo'ylab kislorod tashiydi va to'qimalarda yashovchanlikni ta'minlaydi. Biz qon ovozini chig'anoqsiz ham eshita bilganimizda edi, uning hayotimiz uchun naqadar muhim ekanini har lahzada his etgan bo'lar edik.

Qon bir daqiqadan kam vaqt oralig'ida insonning butun tanasini aylanib chiqadi. Uning shu darajada yugurik harakati uchun hazilakam energiya kerak, deysizmi? Tanish-notanish odamlarning "qoni kam-da, holi yo'q" degan gaplarini tez-tez eshitib qolamiz. Aslida qon tomirdan

tabiyy tarzda to'kilib ketmaydiki, uning miqdori kamaysa. Hamma gap undagi leykosit, eritrosit, trombositarek kabi shaklli elementlarning ko'rsatkichi bilan bog'liq.

Tanish-notanish odamlardan "qoni kam-da – rangpar" degan gapni eshitib qolamiz. Aslida, qon tomirdan tabiiy bug'lanib ketmaydiki, uning miqdori kamaysa. Qizig'i shundaki, gap qonning hajmida ham emas, undagi leykotsit, eritrosit, trombosit kabi shaklli elementlar ko'rsatkichi bilan bog'liq.

Bemor nimadan shikoyat qilishidan qat'i nazar, birinchi galda qon topshirishi va uning tahlili kerakligi aytiladi. Bu bejiz emas. Har qanday kasallikka to'g'ri tashxis qo'yish uchun qon tarkibi gematologik tekshiruvdan o'tkazilishi shart. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda tibbiyotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi gematologiyaga ham katta e'tibor qaratildi.

(Davomi 2-sahifada.)


OYDINLAR

"KETDINGMU SEN MENI TASHLAB..."

Cho'lonning ilk ijodiy mashqlari "Sadoyi Farg'ona" va "Sadoyi Turkiston" gazetalarida bosilgan. Shu tariqa u el og'ziga tushdi, shoir sifatida tanildi. Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinganidan ruhlanib istiqloq kuychisiga aylandi. Sovet hukumati tomonidan Qo'qon, umuman, Farg'ona vodiysi qonga botirilganida cheksiz qayg'uga botdi.

Cho'lon 1919-yildan Toshkentda qo'nim topdi. Bu yerda Fayzulla Xo'jayev, Fitrat bilan tanishdi. Aslida, shoir Fitrat shaxsiga "Oyina" jurnalidagi chiqishlari orqali g'oyibona ehtirom tuyib kelardi. Shu tariqa Cho'lon "Chig'atoy gurungi"da olimning o'ng qo'lga aylandi. Tashkilot Akmal Ikromov (Elxon), Qayum Ramazon (O'ktam), Mirmashriq Miryunus (Elbek), Mannon Majidiy (Uyg'ur), Xurshid, Botu, Sanjar Siddiq, Shokir Sulaymon, G'ulom Zafariy, G'ozir Yunus kabi ko'plab iqtidorli yoshlarning boshini qovushtirdi. Ular adabiy yig'inlarida Vatan ozodligi va istiqbol haqida suhbatlar qurur, eng muhimi, a'zolarining har biri Fitrat tavsiyasi bilan ilm-fan, adabiyot va san'atning ma'lum bir yo'nalishini tadqiq etishga yo'naltirilgandi.

Shoir Toshkentda "Ishtirokiyun", "PocTA" devoriy gazetalari, "Yangi



Sharq" jurnali tahririyatida faoliyat olib bordi. Allaqachon Turkistonning birinchi raqamli shoiriga aylangan Cho'lonning ijod namunalari o'sha yillardagi o'zbek milliy matbuotining deyarli barcha sonlaridan topish mumkin.

1920-yil Bokuda o'tkazilgan Sharq xalqlari konferensiyasiga Turkiston hukumati rahbari Turor Risqulov boshchiligidagi guruhlar tashrif buyuradi. Ular sovet ma'murlariga "Turkistondan qizil armiyani olib chiqib kelinglar" degan qat'iy talab bilan chiqadi.

(Davomi 7-sahifada.)





Boshlanishi 1-sahifada.

Tashxislashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalariga monand usullari, zamonaviy texnologik diagnostika, davolashning yangi-cha metodologiyalari joriy etilib, kasallikni erta aniqlash, tez va samarali davolashga erishilmoqda.

Sohaning bundan yigirma yil oldingi holati bilan hozirgi salohiyatini taqqoslab bo'lmaydi. Ayniqsa, tana a'zolari transplantatsiyasining joriy etilishi dunyo tibbiyotida mutlaqo yangi taraqqiyot davrini boshlab berdi. Xususan, gematologiya yo'nalishida ham o'ta og'ir xastaliklarni transplantatsiya yo'li bilan davolash keng yo'lga qo'yilaypti. Mamlakatimizda tana a'zolarini ko'chirib o'tkazish markazlari tashkil etilib, so'nggi rusumdagi texnik jihozlar bilan boyitildi.

– Surunkali va o'tkir leykoz, miyelom kasalliklari bilan og'rigan bemorlar soni butun dunyoda oshgan, jumladan, respublikamizda ham, – deydi Sog'liqni saqlash vazirligi bosh mutaxassis-gematologi, Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi transplantatsiya bo'limi mudirasi Gulchehra Muhammadaliyeva. – Viloyatlar kesimida bu kasallik Samarqand, Navoiy, Surxondaryo va Orolbo'yi hududlarida bir muncha ko'paygan. Bunga ko'proq ekologik muhitning yomonlashuvi sabab bo'lmoqda.

Tibbiyot davr bilan hamqadam, kerak bo'lsa, bir qadam oldinda yurishi kerak. Bugungi ehtiyojni inobatga olib, markazimiz qoshida qondan o'zak hujayra o'tkazishning ikki turini o'zlashtirdik: biri autotransplantatsiya – o'zak hujayrani bemorning o'z suyak to'qimalaridan o'ziga, ikkinchisi allogentransplantatsiya – begonadan (qonunchiligimizga ko'ra, faqat qarindosh-urug'lardan olinadi) ko'chirib o'tkazishni yo'lga qo'ydik.

2014-yilda surunkali leykoslarni davolashda ilk bor autotransplantatsiya amaliyotini qo'llagan edik. Bu jarayon, nihoyatda jiddiy tibbiy transplantatsiyaoldi tayyorgarliklar bilan amalga oshiriladigan murakkab amaliyot sanaladi. Birinchidan, qon transplantologiyasida bemor juda katta miqdorda kimyoterapiya muolajasini oladi. Organizm charchaydi, oqibatda tanadagi viruslar faollashib, yondosh kasalliklar ham kuchayadi. Birgina bemorni transplantatsiyaga tayyorlashdan tortib oyoqqa turgunigacha qariyb 50 nafar tibbiyot xodimi u yoki bu darajada mas'ul bo'ladi. Ta'kidlash joiz, bemorlarimizning sog'ayishiga ketadigan barcha mablag' davlat tomonidan to'lab beriladi. Faqat o'zi ro'yxatdan o'tgan poliklinikadan transplantatsiya o'tkazish uchun order olib kelsa kifoya.

Gulchehra Muhammadaliyeva suhbatlasha turib, buni yosh transplantologlar konsilium xonasiga taklif qildi. Bir guruh navqiron shifokorlar yaqin kunda o'tkir lemfoblastik leykoz tashxisi bilan allogentransplantatsiya o'tkazilib, kecha tunda to'satdan issig'i ko'tarilgan namanganlik bemor holatini muhokama qilishayotgan ekan. Ularning qizg'in bahslarini tinglab, yuzimizda tashvish ifodasi paydo bo'ldi chog'i, bizni bemor yotgan xonaga olib borishdi. Ochig'i, uni juda og'ir

alfozda bo'lsa kerak, degan xayolda edik, kulib turganini ko'rgach, hadigimiz tarqadi.

– Ikki oycha bo'ldi, singlimdan suyak ko'migi ko'chirib o'tkazishdi, – deydi Muqaddas Abdullayeva. – Hozir ancha yaxshiman. Ko'nglim biroz ayniydi, chunki dorilarning ba'zilar qayt



qildiradi. Boshqa shikoyatim yo'q. Turmush o'rtog'im, uch o'g'lim qarovi ham menga dalda bo'lyapti. Chet elga borib davolanishga majolim ham, yetarli pulimiz ham yo'q edi. Xayriyat, o'zimizda iloji bor ekan. Shifokorlardan, davlatimizdan juda minnatdorman.

Mutaxassislar bemorning issig'i donorqon qarshiligi tufayli yondosh kasallik xuruji bilan yuzaga chiqqan, degan to'xtamga keldi. Ularning aytishicha, transplantatsiyaning mana shunaqa asoratlari ham bor. Hujayraning ko'chirib o'tkazilgan egasiga nisbatan donor reaksiyasi bo'ladi. Ilik hujayra suyuq ko'rinishda bo'lgani bilan, u ham tana a'zosi hisoblanadi. Hujayra ko'chirilganda ilikka joylashishi mumkin, lekin yangi muhitni qabul qilmay "begonasirash"ni boshlash ehtimoli yo'q emas. Agar u joylashgan o'midan "yotsirasa", g'alayon ko'taradi va bemorning sog'ayishiga qarshilik ko'rsatadi. Odatda, bunday hol yuzaga kelmasligi uchun maxsus dorilar beriladi. Ularni ichish tartibiga qattiq rioya qilish kerak. Qolaversa, transplantatsiyadan so'ng bemor aytilgan vaqtda tibbiy ko'rikdan o'tib turishi shart. Aks holda, kasallik qaytalanadi.

Hozirgi kunda respublikamizning ko'plab tumanlaridagi shifoxonalar gemoanalizatorlar bilan ta'minlangan. Bu zamonaviy tibbiy uskunalar 24 turdagi qon tahlilini qila oladi. Lekin chetda joylashgan ba'zi qishloq shifoxonalarida faqat gemogloblin, eritrotsit, leykotsid miqdorigina tekshiriladi. Bu bilan qon kasalliklarini aniqlab bo'lmaydi. Bunday tahlil faqat kamqonlik

darajasinigina ko'rsatadi, xolos. Bizning markazda qon kasalligiga taxmin qilingan bemorlar suyak ko'migini biopsiya qilish orqali, ya'ni ilikdan hujayra olish yo'li bilan tekshiriladi. Hozirda bu diagnostikaning ham yengilroq usullari tatbiq qilinaypti. Lekin leykoz va boshqa og'ir kategoriyali

davlatlar klinikalari ishi bilan solishtiradi. Oradagi tajriba va mablag' tafovutini hisobga olishmaydi. Alamlisi, o'sha "instadoktorlar" bizning muvaffaqiyatsiz, ularning esa muvaffaqiyatli amaliyotlarini ovoza qiladi. Vaholanki, bizdagi shifokorlar malakasi ham chet eldagi nufuzli klinikalar shifokorlarinikidan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas. Bundanam alamlisi, bizda bemalol amalga oshirish mumkin bo'lgan tibbiy amaliyotni boshqa davlatlardagi o'zlari kelishuv tuzgan klinikalarda o'tkazish uchun bemor "ovlaydigan"larning urchib ketgani. "Ovlaydigan" deyishimiz boisi, ular bemorni o'ziga og'irish uchun shifokorlarimizni ataylab uquvsizga chiqarishadi, tibbiyotimizni qoloq qilib ko'rsatadi.

Xalqimizda vaqt oliy mezon, degan o'lmas hikmat bor. O'zbek mutaxassislarining qo'li yengilligi, insofi va madaniyati sabab bugun ushbu markazda qo'shni davlatlardan ham shifo izlab kelayotganlar topiladi. Mana, yaqindagina tojikistonlik dardman autotransplantatsiya qilindi. Ushbu amaliyotni o'tkazish Turkiyada 40 ming, Hindistonda 30 ming, Rossiyada 25 ming dollar turadi. Bizda-chi, xalqimizga mutlaqo bepul, boshqa mamlakat fuqarolariga 12 ming AQSh dollarga tushadi. Bizning mutaxassislar salohiyatiga ishonib o'zga davlatdan kelishsa-yu, o'zimiznikilar boshqa mamlakatlarga borib, transplantatsiya qildirishsa. Aslida, xalqimiz g'amini yeb, ularning mushkuli oson bo'lishi uchun yo'lga qo'yilaypti-ku, bunday imkoniyatlar.

Ushbu markaz respublikamizdagi gematologik va onkogematologik kasalliklarni diagnostika qilish va davolashga ixtisoslashgan yagona tibbiy muassasa bo'lib, 180-200 o'ranga mo'ljallangan. Transplantatsiya bo'limining o'zi esa 12 o'rinni. Bu yerda yiliga yigirmadan ziyod bemorga o'zak hujayra ko'chirib o'tkazilaypti. Yosh va intiluvchan kadrlar O'zbekistonda bu sohani yanada takomillashtirish maqsadida Rossiya, Turkiya, AQSh, Hindiston kabi davlatlarda malaka oshirib kelmoqda.

2023-yilda foydalanishga topshirilgan ushbu ixtisoslashtirilgan gematologiya markazi ilmiy, diagnostik, klinik faoliyat olib boradigan yetakchi majmuadir. Mamlakatimizdagi tibbiyot institutlarining uchta kafedrasida markaz negizida ishlamoqda. Rejada esa respublika aholisining salomatligini yaxshilash yo'lida yana bir muhim qadamni tashlashga tayyorgarlik bor: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Xorazmda markazning transplantatsiya bo'limi o'z filiallarini ochishni ko'zlagan.

– Men Toshkent pediatriya tibbiyot instituti-tamomladim, – deydi yosh shifokor Sardor Muhammadiyev. – Sankt-Peterburgdagi Raisa Gorbachyova nomli Bolalar gematologiyasi va transplantologiya markazida ikki yil tahsil oldim. Tibbiyot sohasiga onam, transplantologiyaga esa Kamoliddin Olimjonov tufayli kirib keldim. Kamoliddin aka bilan bir institutda o'qiganmiz. U kishi gematologik transplantologiya

yangi yo'nalish ekani va bu yo'nalish umidi so'ngan minglab yurtdoshlarimizga umid bag'ishlashini, ularni hayotga qaytarishini aytib, birga ishlash taklifini berdi. Mana bugungacha 126 ta autotransplantatsiya, 43 ta allogentransplantatsiyani ustozlar ko'magida amalga oshirdik. Bu darddan butunlay forig' qilish qiyindir, ammo tranplantatsiyadan keyin bemor hech bo'lmaganda yana besh-o'n yil bu kasallikni unutadi, kimyoterapiya olmaydi, yotib qolib birovga muhtoj bo'lmaydi.

Albatta, bemorga o'zak hujayrani ko'chirish amaliyotining eng muhim jihat – tanaga mos donor qonni topish. Bizning qonunchiligimizda bemorga butunlay begona insondan transplantatsiya qilish mumkin emas. Ammo bu katta muammo tug'dirmaydi. Chunki bizda ko'p bolalilik va qarindosh-urug' tendensiyalari yaxshi rivojlangan. Shu sababli gematologik kasalliklar bilan xastalangan bemorlar qon bilan bog'liq muammoni o'z donorlari bilan hal qiladi. Qolaversa, zamonaviy uskunalar yordamida qon zaxirasini kengaytirish bo'yicha ham izlanishlar tizimli amalga oshirilmoqda.

Markazga Amerikadan aferez (separator apparat)lar olib kelingan. Yapon olimlari tomonidan ixtiro qilingan bu aqlli apparat ikki soatdan olti soatgacha vaqt oraliqida qondan 200-400 millilitr atrofida o'zak hujayrani ajratib oladi. Uning qulayligi shundaki, ilgarilari donordan o'zak hujayra odamning vahmi keladigan yo'g'on ninali katta shpritsni suyakka suqib, kuchli og'riqlar bilan tortib olinardi. Separatorlar vena qon tomiriga yuborilgan kateter orqali kerakli o'zak hujayrani o'zi yig'ib beradi. Apparat yordamida faqat o'zak hujayra yig'iladi, qon esa aylanma harakat tarzida egasiga qaytariladi. Ilgari qon topshirgan donordar boshi aylanib, o'zida lohaslik sezgan. Chunki qon miqdori kamaygan. Hozir esa qon topshiruvchi uchun bunday xavf yo'q.

Qon olish uskunasiyning yana bir yaxshi tomoni, donorning qon tahlili xulosalari taqdim etilmasa ishlamaydi, ya'ni qonning aniq tahliliga qarabgina donordan hujayra oladi. Bunda qon beruvchining ahvoli, qondagi elementlar rezervi, gemogloblin miqdori to'liq elektron nazoratda bo'ladi. Shuningdek, donor qon tomiriga ikkita kateter baravar ulanib, biridan eritrotsit, plazma yoki trombosit ajratib olinadi, ikkinchisi orqali esa qolgan qon komponentlari egasiga qaytarib yuboriladi.

Xullas, qon topshiruvchining ham xavotiri arigan. Tibbiyot hamishagidek o'zgarishlar pallasida. Inson qadri, umr uzayishiga erishish zamonaviy tibbiyotning bosh shioriga, davlatimizning izchil islohotlari tamoyiliga aylandi.

Muhayyo RUSTAMOVA



Ushbu QR-kodni skanerlang va ijtimoiy tarmoqlarda tomosha qiling!

Boshlanishi 1-sahifada.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlar platformasiga ko'ra, ayni kunlarda o'zbek oliy ta'lim muassasalari 201 taga yetgan. Shundan 49,75 foizi davlat, 32,32 foizi nodavlat muassasalar hissasiga to'g'ri keladi. E'tiborlisi, 953 ming nafardan ortiq talaba davlat oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bo'lsa, nodavlat OTMLar 514 ming nafar yigit-qizlarni o'z bag'riga olgan. Ushbu raqamlar ham xususiy ta'limning davlat muassasalariga tobora raqobatlasha boshlaganidan darak beradi.

Yana bir jihat. Xususiy oliy ta'lim shaklining rivojlanishi abituriyentlarda tanlov imkonini ham kengaytiradi. Muassasalar esa raqobat muhitida ta'lim sifatini oshirish uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilarni ishga jalb etadi, ilg'or metodikalarni ta'lim jarayoniga joriy qiladi, zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llaydi.

Shunday ekan, xususiy oliy ta'lim muassasalarining ahamiyati bugun rivojlanish yo'lidan dadil borayotgan mamlakatlar – jumladan, O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Shunga qaramay, bu sohada ham hal qilinishi zarur bo'lgan ayrim muammolar, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud. Olaylik, ba'zi xususiy oliygohlar sifatsiz o'quv dasturlaridan foydalanayotgani yoki tajribasiz kadrlarga tayanib qolgani kuzatilmogda. Ayrimlari esa yetarli akkreditatsiyaga ega emas, bu bitiruvchilarning kelajakda mehnat bozorida pozitsiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

OLIIY TA'LIM ISLOHOTLARI:

TANLOV IMKONIYATI KENGAYMOQDA



Moliyaviy yuklamani ham hisobga olish kerak. Xususiy universitetlarda o'qish haqi yuqori bo'lgani sababli ko'pchilik yoshlar uchun tanlovga maqbul bo'lmayapti.

Albatta, davom etayotgan islohotlar zanjirida bu jihatlar ham bosqichma-bosqich inobatga olinaypti. Qabul qilingan so'nggi qaror va farmonlarda, qonunosti hujjatlarida oliy ta'lim tizimida xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish ko'zda tutilgani bejiz emas.

Bunda litsenziyalash jarayonlarining soddalashtirilishi, soliq imtiyozlari berilishi va yer ajratilishidagi to'siq-larning bartaraf qilinishi fikrimiz tasdiq'idir.

Qisqa qilib aytganda, O'zbekistonda xususiy oliy ta'lim sektori endigina shakllanmoqda. Bu jarayon hali yo'l-yo'riq, tajriba va tartibga muhtoj. Shunga qaramay, xususiy sektorning mavjudligi raqobatni kuchaytiradi, tizimga yangiliklar kiritadi va talabalarga tanlov imkoniyatini yaratadi.

Sir emas, mehnat jamoalarida tobora chuqurlashayotgan raqobat muhiti yuzaga kelgan. Xalqaro maydonda ham kadrlarning yangi avlodidan yuqori kasbiy malaka talab qilinmoqda. Davr har bir oliy ta'lim muassasasidan ham O'zbekistonimiz, ham mintaqamizdagi qo'shni davlatlar, ham jahondagi yetakchi davlatlarda mehnat qilishga layoqatli kadrlar tayyorlashni talab qilmoqda. Shubhasiz, bu oliy ta'lim sifatini ta'minlashga bo'lgan ijtimoiy buyurtma hisoblanadi.

Mamlakatimizning global jarayonlar bilan munosabatlari keskin kengaymoqda. Investitsion muhit faollashmoqda. Ijtimoiy, iqtisodiy sohalarida yangi tarmoqlar, qo'shma korxonalar paydo bo'lib, xususiy mulk subektlari rivojlanaypti. Bu jarayon oliy ta'limdan ana shu modernizatsiyalashayotgan iqtisodiyot, takomillashayotgan ijtimoiy sektor talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashni talab qiladi.

Shu o'rinda xususiy universitet rektori sifatida o'z tajribamdan kelib chiqib, ayrim masalalarga e'tibor qaratmoqchiman. Tajribali va yuqori malakali professor va o'qituvchilar xususiy universitetlarning asosiy boyligi hisoblanadi. Zotan, jahon reytinglarida ham aynan muassasa-

da ta'lim berayotgan muallimlarning salohiyati oliygoh o'rini belgilovchi mezon hisoblanadi. Ishga qabul qilishda ularning ilmiy salohiyatiga, shuningdek, xorijiy tillarni bilishi, nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalar e'lon qilishi, darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilgani, xalqaro "hersh" indeksiga egaligiga jiddiy e'tibor berish dardor.

Ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning o'zaro uyg'unligiga erishish – bosh masala. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ta'lim jarayonining, ya'ni nazariy bilimlarning amaliyot bilan bevosita bog'lanishiga alohida e'tibor qaratishni davrning o'zi talab qilmoqda.

Biz, avvalo, mutaxassislik kafedralari talabalar tanlagan kasbga mos tashkilot, korxona, tadbirkorlik subektlari bilan shartnoma imzoladik. Bunday hamkorlik natijasida tayyorlanayotgan kadrlar o'zining bo'lajak ish joyi bilan tanishadi, u yerdagi malakali mutaxassislar tajribasini o'rganadi. Shu tariqa talaba raqobat muhitida bemalol faoliyat yuritishi uchun zamonaviy kasbiy

bilimlarni puxta egallashi zarurligini dildan his qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini tijoratlashtirish, o'quv jarayonini innovatsiyalar bilan uzviy bog'lash hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadini xalqaro hamkorliksiz amalga oshirib bo'lmaydi. Universitetda o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarga Germaniya, Buyuk Britaniya, Latviya, Litva, Estoniya, Indoneziya, Hindiston, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston vakillarini ham taklif etayotganimizning sababi shunda.

Biz tovarlar raqobatbardoshligi haqida ko'p gapiramiz. Ammo jahon mehnat bozorida ishchi kuchi ham – tovar. Shunday ekan, bugun har qanday oliy ta'lim dargohi vatanparvar, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga majbur. Xususiy oliy ta'lim muassasalariga bu borada mas'uliyat ikki karra ko'proq tushadi.

Bu mas'uliyatni esdan chiqarishga hech birimizning haqqimiz yo'q.

Abdusalom UMAROV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti rektori,
texnika fanlari doktori,
professor



DO‘STLIK VA HAMKORLIK IFODASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Zamonlar evrilishi hosilasida faxriy unvonlar, orden va medallar muomalaga kiritiladi. Ularning maxsus nizomlari va topshirish tartiblari ishlab chiqiladi. Bu vositalar taqdirlash jarayonini yanada jozibali shaklga keltiradi.

Gapni tarix sahifalaridan boshlaganimiz bejiz emas. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning mintaq va xalqaro maydondagi do‘stlik va o‘zaro manfaatga asoslangan siyosati dunyo yetakchilari tomonidan ijobiy qabul qilinmoqda va olqishlanmoqda. Bu Prezidentimizga qator davlat rahbarlari tomonidan topshirilayotgan mukofotlarda ham o‘z aksini topmoqda.

O‘tgan vaqt mobaynida Davlatimiz rahbari qo‘shni va dunyodagi yetakchi davlatlarning bir qator nufuzli mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Qozog‘istonning “Oltin qiran” va “Do‘stlik”, Qirg‘izistonning “Danaker”, Tojikistonning “Zarrintoj”, Rossiyaning Aleksandr Nevskiy, Fransiya Faxriy legioni, Turkiyaning “Respublika” ordenlari, Turkiy dunyoning oliy ordeni, MDH faxriy nishoni, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining faxriy nishoni va boshqalar shular jumlasidan.

Bu taqdirlashlar O‘zbekistonning dunyo maydonida nufuzi ortib borayotgani, davlat rahbari tinchliksevar va taraqqiyparvar

lider sifatida namoyon bo‘layotgani isbotidir. Shu bilan bir qatorda bu xorij siyosiy elitasining mam-lakatimizga qiziqishi ortayotgani, xalqimiz salohiyatiga yuksak baho berayotganining amaliy ifodasidir.

Joriy yilning 5-avgust kuni bo‘lib o‘tgan taqdirlash marosimi ham O‘zbekiston-Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlash sari qo‘yilgan navbatdagi muhim qadamdir. Bu marosimning xalqaro konferensiya doirasida o‘tkazilgani ham o‘rinli bo‘ldi. Zero, Shavkat Mirziyoyevning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiya-sida ilgari surgan quyidagi oltita muhim tashabbusi tom ma‘noda “Hamkorlikni rivojlantirishga” qaratilgani bilan ahamiyatlidir:

birinchidan, xalqaro transport yo‘laklari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish uchun muvofiqlashtirish;

ikkinchidan, BMT shafeligida dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun Tranzit kafolatlari to‘g‘risidagi global bitimni ishlab chiqish;

uchinchidan, BMT shafeligida Dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning logistika integratsiyasiga ko‘maklashish jamg‘armasini ta‘sis etish;

to‘rtinchidan, dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan mamlakatlarning Zaiflik global indeksini ishlab chiqish;

beshinchidan, O‘zbekistonda agrotarmoqni rivojlantirish uchun Innovatsion xabni yaratish;

oltinchidan, umumiy tahdidlarni birgalikda bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqishga mamlakatlarimiz yetakchi ekspertlari va “aql markazlari”ni faol jalb etish, bu borada xalqaro anjuman va davra suhbatlari o‘tkazish.

Ma‘lumot uchun, hozir dunyodagi 32 mamlakat to‘g‘ridan to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas.

Davlatimiz rahbarining konferensiyadagi nutqi quyidagi fikrlar bilan yakunlandi: “Global bozorlarga chiqish barcha uchun teng bo‘lishi kerak. O‘zbekiston global taraqqiyotning yanada adolatlari arxitekturasini shakllantirish borasida konstruktiv va uzoq muddatli sheriklikka doim ochiq va tayyor ekanini sizlarga yana bir bor bildirmoqchiman”.

Jadid bobolarimiz bundan yuz yil avval mintaqaning quruqlik ichkarisida qolib, qoloqlikka yuz tutayotgani, jahon savdosi dengiz va ummonlarda davom etayotganidan qayg‘urgan edi. Bugun ularni tashvishga solgan, keyingi davrlarda ham yechimini kutgan dengizga chiqish masalasi Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati tufayli bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Shu ma‘noda, Yurtboshimizni mukofot bilan muborakbod etamiz.

Otabek BAKIROV

KO‘RGAZMA

1-10-avgust kunlari Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan tanlov-ko‘rgazma ochildi.



JADIDLAR OBRAZI RASSOMLAR NIGOHIDA



Asarlari yuqori baholangan 18 nafar ijodkorning haykaltaroshlik, rangtasvir va grafik yo‘nalishlar bo‘yicha ishlagan asarlari ko‘rgazmaning asosiy qismini egalladi. Ular orasida portret ustasi Sabir Raxmetov va yosh rassom Erik Kulmanovning ishlari mutaxassislar tomonidan alohida e‘tirof etildi. Xususan, E.Kulmanov o‘z asarida Behbudiyning so‘nggi kunlaridagi holatini mohirona aks ettirgan.

“Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi ekspozitlari” bo‘limida XX asr boshidagi Turkiston muhitini his qilishingiz mumkin.

“Zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan asarlar” – bu bo‘limdan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalarining ijod mahsuli o‘rin olgan. O‘ziga xos tomoni shundaki, bu yerdagi asarlarni zamonaviy san‘at vositalari asosida yaratishda grafik dasturlar, raqamli kollajlar va sun‘iy idrokdan foydalanilgan. Bu yondashuv jadid bobomiz qiyofasini zamon bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Rassomlar Behbudiyning ichki dunyosi, fikrlari, orzularini ranglar va ramzlarda ifodalashga intilgan. Haykaltaroshlar esa Behbudiy bilan bir qatorda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi millat fidoyilari obrazini gavdalandirish borasida ham muvaffaqiyatli tajribalar olib borgan.

Ko‘rgazma ishtirokchilarining yondashuvi, badiiy tafakkuri, tarixiy ong bilan ishlash mahorati yuqori baholandi. Ayniqsa, yosh ijodkorlarning bu mavzuga bo‘lgan qiziqishi – san‘at orqali tarix bilan muloqot qilishga urinishlari e‘tiborga molik.

Abbos SHOYIMOV

FESTIVAL

Qadim zamonlardagi Xorazm ahlining tirikchiligini aniq-tiniq aks ettiradigan matalni eshitganmisiz: “Uch oy qovunim, uch oy sovunim. Uch oy qovog‘im, uch oy chavog‘im”. “Qovun”, “qovog‘” – tushunarli. Lekin “sovun” va “chavog‘” nima degani?

Amudaryo har ikki sohilda yashovchi kishilarga faqat suvi bilan emas, turli baliqlari bilan ham tiriklik manbai bo‘lgan. “Chavog‘” – bu baliq. “Sovun” deganda tabiat ne‘matlarini turli usullar bilan qishga saqlab qo‘yish – yoz-u kuzdagi to‘kinlikdan qolgan rizq tushuniladi.

Qovun vohada necha ming yillardan buyon ekilayotgani qadim bitiklar, sayyohlarning yodnomalarida tilga olinadi. X asrda arab sayyohi Yoqut boshqa o‘lkalarda uchramaydigan qovunlar haqida hayrat bilan yozgan. Xorazmni “o‘n ming qal‘ali” yurt deb ta‘riflar ekan, har qal‘adagi to‘kin bozorlarda mirishkorlar shirin-shakar qovunlarini juda arzon bahoda sotayotganiga urg‘u bergan.

Savdogarlar esa ajib yo‘llar bilan karvonlarda Xorazm qovunlarini Bag‘dodga asl holatida – uniqtirmay yetkazgani ham ayni haqiqat. Tilni yorar qovunlar salkam o‘z vazni miqdorida tilloga sotilgan.

Besh asr ilgari xonlik Yevropaga kuz-qish oylarida qovun eksport qilgani arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Bugina emas, qovun mag‘zidan tayyorlangan qovunqoqi Olmoniya yoki Farangiston qirrollari dasturxonlarini noyob yemak o‘laroq bezagan.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning yangi bosqichi Xorazm qovunlariga “ikkinchi umr” baxsh etdi – Xivada har yili avgust oyida respublika Turizm qo‘mitasi hamda viloyat hokimligi o‘tkazirilgida “Qovun sayli” xalqaro festivali hamkorligida an‘ana aylandi.

Bu yil ham an‘ana davom etib, uch kun davomida “Arda Xiva” majmuasini turli qovunlarning o‘ziga tortar hidlari tutib ketadi. Ayniqsa, mazkur festival xorijlik sayyohlarning e‘tiborini tortadi. Chiroyli qilib terilgan, balandligi qadim me‘moriy obidalar bilan bellashadigan, turli rang va ko‘rinishdagi qovunlarni faqat tomosha qilib qolmasdan, undan tatib ko‘rish, to‘ygancha iste‘mol qilishni kim xohlamaydi deysiz?

O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazining sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Xorazm ilmiy-tajriba stansiyasida vohada yetishtirilgan 124 turdagi qovunning urug‘i saqlanadi. Nafaqat saqlanadi, balki barcha nav qovunlar oz maydonlarda bo‘lsa-da ekilib, ularning namunalari har yili “Qovun sayli”da namoyish qilinadi.

Raqamning hayratlanarli ekanini tasavvur qilyapsizmi? 124 turdagi qovunlar! Shu o‘rin-

“UCH OY QOVUNIM...” MATALI O‘ZGARGANIGA O‘N YILLARDAN OSHDI



da ajdodlarimizning malakasi, tajribasi va salohiyatiga qoyil qolamiz, rahmatlar aytamiz! Behad faxrlanamiz ham.

Bahor adog‘ida boshqa viloyatlardan keltirilgan tezpishar tushvuzlar qatorida vohada yetishtirilgan tezpishar qovun turlari ham aholi dasturxoniga yetkazib berila boshladi. Kunda-kunora ko‘chalar bo‘yalab qovun-u tarvuz sotayotgan yular mashinalarni bobalar o‘rab olishgani manzarasi ko‘zlarni quvontirdi. Yozning ilk oyi o‘rtalariga kelib esa voha tabiatiga mos, o‘xshashi yo‘q gurvaklar pishib yetildi va aholi tiligi tilni yorar noyob qovun ta‘midan bahramand bo‘ldi.

Shu o‘rinda qovunchilikdan keladigan daromad haqida muxtasar aytmoq lozim. Vohada polizchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklardan tashqari, aholi qo‘shimcha tomorqalarida qovun yetishtirishni yil-yildan ko‘paytirayotgani ortida ham aynan kam chiqim evaziga yaxshigina daromad topish ishtiyoqi yotibdi. Ochiq maydonlarga ekilgan tezpishar qovun gektariga o‘rtacha 250 sentner tosh bosadi. Bahor oyog‘ida har bir kilogramm qovun 6-7 ming so‘mdan sotildi. Yoz oylariga kelib esa narx 2-3 ming so‘mga tushdi. Demak, bir gektarga qovun ekanan dehqon o‘rtacha har gektardan 100 million so‘m atrofida daromad topadi. Boshqa biror ekin bu qadar sof daromad olib kelmaydi.

Sholi yoki boshqa ekinlarni yetishtirishda sarf-xarajatlar umumdaromadning deyarli yarmini yutib yuborsa, qovun yetishtirishga sarflangan xarajat oladigan daromadning eng ko‘pi bilan 15 foizini tashkil qiladi. Bir marta – undayam gektariga 200 kilogramm mineral o‘g‘it berilishi bir yoq, bor-yo‘g‘i hali palak yozar vaqtida bir bora sug‘orilishi bir yoq.

Aynan sarf-xarajatning kamligi sabab so‘nggi yillarda yangi bog‘ tashkil qilgan fermerlar bog‘ oralarga qovun ekish tajribasini keng qo‘llay boshlashdi. Bog‘ orasiga ekilgan qovun gektariga 150 sentner hosil beradi. Yoz o‘rtalarigacha qovun yig‘ishtirib olinadi – kuzda esa mevalar pishib yetiladi. Bir maydondan shu taxlit ikki marta hosil ko‘tariladi.

Ayrim fermerlar bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga qovunning tezpishar navlarini ekib, kuz yarmida hosil ko‘tarish tajribasini qo‘llashmoqda. Bu bilan ham suv tejiladi, ham qisqa muddatda – uch oyda yaxshigina daromad olinadi.

O‘tgan yili bog‘otlik fermer Murod Yavmutov qadim bobolar an‘anasini qayta tikladi – dunyoning ikki yuz davlatida amal qiladigan “Halol” sertifikatiga egasi bo‘lgan bu tadbirkor ilk bora Buyuk Britaniyaga qovun eksport qildi.

Biz hali chorak asrdan buyon voha qovunchilarining Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarga qovun murabbosini, qovun urug‘i

eksport qilayotganlari, ularning safi yil sayin oshib borayotganini aytmayapmiz. Birgina o‘tgan yili voha polizchilari xorijga salkam 1 million dollarlik qovun urug‘i sotishdi. Bu urug‘lar ekish uchun emas – Sharqiy Osiyodagi ayrim davlatlarda qovun urug‘idan turli dori-darmonlar tayyorlash texnologiyalari amaliyotda ekanligi bilan izohlanadi.

Hozirda vohada qovunning tezpishar hamda qishki navlaridan eng ko‘pi bilan o‘n to‘rt turi ekilyapti. Ilmiy tajriba stansiyasida avaylab saqlanayotgan yuzdan ortiq qovun navlari urug‘lari o‘z davri kelishini kutaypti.

Bolalik davrimizda – o‘tgan asrning oltimishinchi-yetmishinchi yillarida vohada ko‘p-lab ekilgan qovunning ayrim navlari bugun polizlarda ko‘rinmaydi. Ta‘mi shirinligida gurvak bilan bellashadigan “Qari qiz” navli qovunning ta‘mi katta avlod vakillarining og‘zida qolgan. Yoki mag‘zi bir qarich keladigan, har birining og‘irligi 25-30 kilogramm tosh bosadigan “Olaxomma” navli qovun ham bugun kamyoq. Polizchilar bu navli qovunni ancha kech pishishi sabab ekmay qo‘yishgan. Ishonamizki, qishloq xo‘jaligiga yangicha texnologiyalar tezkor kirib kelayotgan hozirgi davrda yuqorida eslatilgan qovun navlarini tezpishar navlar bilan chatishtirish orqali qayta ekish va parvarishlash tajribasini yo‘lga qo‘yish kerak.

Qadim va hamisha navqiron Xivada “Qovun sayli” boshlanmoqda. Uch kun davom etadigan festival o‘tgan yillardagidan

zavqliroq, hashamliroq o‘tishi aniq. Sayilga tashrif buyuradigan mehmonlar soni ham bu yil rekord ko‘rsatkichga yetishi hech shubhasiz.

Zahmatli mehnatlari hosilasi bo‘lgan shirin-shakar qovunlari bilan festival ahlini xursand qilgan mirishkorlar bir qancha nominatsiyalar bo‘yicha munosib taqdirlanadilar. Bosh sovrin – zamonaviy qimmatbaho yengil mashina ham haqiqiy egasini topadi, albatta!

Bugina emas. Aynan polizchilikka berilayotgan e‘tibor samarasi o‘laroq, “uch oy qovunim” matali eskirgani – eng asosiysi. Bugun voha polizchiligi darg‘alari o‘zlari yetishtirgan qovunlarni uzoq muddat saqlash va bahoriy bayramlarda el dasturxoniga yetkazish tajribasini keng o‘zlashtirishdi. Bunda ularga hududlarda barpo qilingan yirik hajmli muzlatgichlar qo‘l kelyapti. Bundan tashqari, tajribali mirishkorlar qovunlarni mo‘tadil iqlimli xonalarda gumba ko‘mib saqlashdek ajdodlar tajribasidan ham foydalanishyapti.

Vohada qovunning 124 navi borligini yuqorida hayrat va iftixor bilan qayd etgandik. Raqamni keltirishda sal shoshimbiz. O‘tgan yilning o‘zida Xorazm ilmiy tajriba stansiyasi hamda Urganch davlat universiteti olimlari voha tuprog‘i va iqlim sharoitlariga mos uchta yangi qovun navini yaratishibdi. “Ifitxor”, “Gandimyon” hamda “Kumush” deb nom berilgan yangi qovun navlari tajriba stansiyasi maydonlarida ilk bora ekildi va yaxshigina hosil ko‘tarildi. Bugun boshlanib, uch kun davom etadigan “Qovun sayli”da ilk bora shu yangi nav qovunlar festival ishtirokchilariga taqdim qilinadi.

Bu Yurtboshimiz tashabbusi bilan boshlangan “Qovun sayli” festivalining qisqa fursatdagi samarasi va yutug‘i zalvorli ekanidan darak beradi.


Qadim Xivaga “Qovun sayli”ga marhamat!

Ro‘zimboy HASAN





Shu kunlarda ikki ardoqli adibimiz – O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A‘zam va O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim qutlug‘ 75 yoshni qarshi olyapti. Ustoz ijodkorlarning adabiyotimiz va ma‘naviyatimizga qo‘shgan hissalari haqida qissalar so‘ylash mumkin. Eng muhimi, Boysundek go‘zal ma‘vodan bo‘y tortib yuksalgan qo‘sh chinor bugun adabiyotimiz chorbog‘iga ko‘rk-u fayz baxsh etib turibdi. Siz aziz mushtariylar nomidan ustozlarimizni chin dildan qutlab, ilhom-u shijoat va mustahkam tansihatlik tilab qolamiz!



HAQ SO‘ZGA SADOQQAT

Usmon Azim katta adabiyotga o‘tgan asrning 70-yillarida yoniq ovoz bilan kirib kelgan, ilk she‘rlaridanoq o‘z kuchiga ishongan kurashchan shoir sifatida o‘zini namoyon etgan edi. She‘rlariga ko‘chgan jasorat, isyonkor ruh, haqparastlik, vatanparvarlik va millatparvarlik hamda erkka tashnalik shoir shaxsiga, uning asarlariga muxlislarda katta ishonch uyg‘otdi..

Davr ziyolilar, ayniqsa, ijodkorlardan xalq va millat taqdiri uchun kurashishni har doimgidan ko‘ra ko‘proq talab qilar edi. Bu vazifa esa vijdoni uyg‘oq, or-nomusi baland, dunyoda haqiqat uchun kurashadigan, haq so‘zni aytilish ishtiyoqida yonganlar zimmasiga tushdi. Ular shaxsiy manfaatdan ko‘ra xalq saodatini ustun qo‘ydilar. Adabiyot va millat dardini kuylab, yonib ijod qildilar.

Jamiyatda turg‘unlik davridan keyin boshlangan qayta qurish yillarida Usmon Azim va tengdoshlarining ovozi yanada baralla yangradi. Chunki ular ijodkor jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarga javobgardir, degan chaqiriqni o‘z vijdonlarining amri deb bilardilar.

Bu avlod qisqa muddat ichida adabiyotga yangi ruh bag‘ishlay oldi. She‘rga munosabatni o‘zgartirishga, barqarorlashib qolgan siyqa fikrlardan, qotib qolgan she‘riy shakllardan qochishga urindilar, haq so‘zni ayitishga intildilar. Shu bois, kurashchan ruh va vijdonning shiddatli so‘zlardagi namoyishi ko‘pchilikning e‘tiborini torta boshladi. Shoirning ushbu she‘ri buning yorqin misolidir:

*Osmonga ham otgum tosh,
Gunohkor bo‘lsa quyosh.
Gunohkor bo‘lsa quyosh,
Qaytib tushmagaydir tosh.*

*Osmon ham bo‘lib g‘anim,
Qaytib tushsa – ne g‘amim.
Bir tosh tushsa tushibdi
Tog‘day boshimga manim.*

Usmon Azim ijodi mukammal adabiy borliq. She‘riyatimizning, umuman, adabiyotimizning muhim qismi. Katta ijod maktabi. O‘zbek adabiyotini bu shoirning ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning turli mavzu, janr va shakllardagi asarlari jahon adabiyoti sathida olib qaralganda ham o‘rnak bo‘ladigan maqomda ekanligi anglashiladi.

1978-yili chop etilgan “Insonni tushunish” deb nomlangan ilk kitobidagi: “She‘riyatni yurakdan siqib, kurashib, hayqirib yashash osonmi?...” kabi misralarida katta she‘riyatga kirib kelayotgan shoirning o‘z yelkasiga, ko‘g‘irrog‘i, o‘z yuragiga katta yukni – mas‘uliyatni olayotganini va buni chuqur his qilib, anglab-tushunib yashay boshlaganini ko‘rish mumkin.

Keyingi – “Holat” kitobi (1979) esa shoir she‘rlari diapazonining avval-boshdanoq keng bo‘lganidan, shunga moyillikning kuchilligidan darak berardi. Keyin chop etilgan o‘nlab she‘riy kitoblari, nasr va dramalari jamlangan boshqa to‘plamlari uning haq so‘zga sadoqatini namoyon etib turadi.

Usmon Azim ijodi katta bir o‘zan – xalq og‘zaki ijodidan bahramand bir she‘riyat. Baxshilarning so‘z va ohanglarida toblangan shoir orzularga to‘la qo‘shig‘-u dostonlarda kuylangan haqiqat va adolat, muhabbat, sadoqat, yurtsevarlik kabi motivlarni o‘z she‘rlariga olib o‘tdi:

*Haq gap uchun har bir ishga
ko‘nadi el,
To‘g‘ri so‘zdan ko‘payadi,
to‘ladi el.*

*Dordan qo‘rqib yolg‘on
aytib turganim yo‘q.
Shoirilari yolg‘on aytasa,
o‘ladi el...*

Qahramonimiz o‘zbek she‘riyatiga mutlaqo yangi bir ohang – baxshilar ohangini olib kirdi, deyish mumkin. Zamonaviy she‘riyatda qadimiy ohanglarni bu asnoda qo‘llash Usmon Azim ijodi bilan bog‘liq adabiy hodisadir. Shoir xalq ijodiga xos mavzu va ohanglarni o‘z she‘rlarida turli usullarda qo‘llaydi. “Baxshiyona”lardagi baxshi obrazi Usmon Azimning yana bir topilmasi. Shoir o‘z dardini Elbek baxshi, Elomon baxshi kabi xalqqa sevimli bo‘lib qolgan haqiqat elchilari tilidan kuylaydi:

*Chinorlarga xassan, dedim,
Osmonlarga patsan dedim,
Yulduzlarni qo‘lda tutib,
Tutganim yo‘q – mastsan, dedim...*

Ayni paytda bu ijodkor har qanday katta shoir kabi dunyo madaniyati va adabiyotini har doim chuqur his etib turgan, uning o‘zaniga tushib ijod qilayotgan iste‘dod sohibidir. U butun insoniyatga tegishli katta yaratilqlar – asarlar ruhini qayta idrok etib, o‘z she‘riyatida ularga yangi mazmun beradi. “Hamlet”, “Otello”, “Brut”, “Orfey”, “Diogenga xat”, “Dedal va Ikar”, “Gladiator”, “Van Gog haqida hikoya”, “Akutagava” kabi she‘rlari, “Xamsa”ga tatabbu” turkumi buni yaqqol isbotlaydi.

Butun insoniyatga tegishli deb bilganimiz “Hamlet” Usmon Azim ijodidagi muhim mavzu. Shoir bu timsol va unga aloqador mavzular yordamida erk haqidagi orzularini, hayot dissonanslari – tirlikli va o‘lim, haqiqat va yolg‘on, muhabbat va xiyonat, adolat va zulm singari azaliy va doimiy muammolarni taftish qiladi.

Usmon Azimda hamisha inson qalbiga kirib borishga, uni butun ifodalashga intilish kuchli bo‘lgan. Yillar o‘tgani sayin shoirning bu intilishi mahoratga aylandi.

Shoir o‘zigacha mavjud she‘riyat an‘analaridan, tajribalardan foydalandi. O‘z yo‘lini topdi, uni shakllantirdi, yuksak darajaga olib chiqdi. Ba‘zan barqarorlashib qolgan fikr va tushunchalarga qarshi chiqdi, ularni o‘zgartirish uchun qo‘rqmay ilgargi intildi. Izlandi, tinmadi – yozaverdi. Shu bois bugun uning an‘anaviy barmoq vaznida bitilgan she‘rlari ham, aruz ohangidagi g‘azal va muxammaslari ham, oq she‘r-u sochmalari ham faqat Usmon Azimga xos jaranglaydi. Ularning har birida, har bir misrada, so‘zda, hatto tovushlarda yolg‘oni yo‘q Usmon Azim yashaydi. Chunki shoir she‘r izlab emas, o‘zini topish uchun she‘r yozadi:

*Hech qachon she‘r izlaganim yo‘q,
Taqqirinni izladim faqat...*

Ustoz ijodkor o‘zbek shoirilari ichida poeziyaning imkoniyatlaridan juda keng va unumli foydalangan shoir. U ko‘plab ballada, dramatik ballada, dramatik doston, she‘riy

yo‘lda bitilgan dramatik qissa kabi janrlardagi asarlari bilan har qanday janrning o‘zbek she‘riyatida bemaol istifoda etilishi mumkinligini isbotladi – ularni milliy lashtirdi. Dramatik balladalarida ertak va dostonlar qahramonlari hayotini yangicha talqinlarda rivojlantirib, ular vositasida inson zotining ma‘naviyatini, ijtimoiy-axloqiy qiyofasini tasvirlaydi, qalb dramatisizmi – iztiroblar tasviri orqali uni o‘z botiniga nazar tashlashga, o‘zini, dunyoni to‘g‘ri idrok etishiga undaydi. Kenja botir, O‘rtancha botir, To‘ng‘ich botir, Oq botir va Qorabotir, Malikayi Boshpari yoxud Elbek baxshi kabi ertag-u dostonlardan kirib kelgan qahramonlar balladalarda bugungi kunning muammolarini taftish etayotgandek. Aslida, bular hamma zamonlarda eng muhim deb qaralgan imon-e‘tiqod, vatanni sevis, o‘z sha‘nini qadrlash kabi masallardir.

So‘z afsungarining ko‘pchilik she‘rga solmaydigan mavzularda ham so‘zni malolsiz, yayratib qo‘llashi, avvalo, voqeani butun mukammalligi bilan idrok etishida, voqea dramasi ko‘ra olishida, uni rivojlantirib qayta yaratishni bilishidir. Shu bois Usmon Azim she‘riyatda bir janrdan ikkinchisiga osonlik bilan o‘tadi, she‘rdan nasrga yoki dramatik asarga ham xuddi shunday qiynalmay o‘tib ijod qiladi.

Shoirning nasrga, dramaturgiyaga qo‘l urishi tasodifiy emas. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida voqelikni she‘r darajasiga olib chiqib, uni lirik pafos bilan ifodalash va kutilmagan xulosalarga kelishda Usmon Azim darajasiga chiqib borish oson ish emas. Bunday ijodiy imkoniyat shoir she‘rlaridagi dramatisizmi kuchaytiradi – lirik qahramon va timsollarning kechinmalarga boy ruhiy olamini juda ham noziklashtirib tahlil qilishga yo‘llaydi. Ayni shu imkoniyat shoirni dramatik va nasriy asarlar yaratishga undagani aniq. Ijodining dastlabki davridan to shu kungacha yozib kelayotgani – “Baxshiyona”lar ham epik voqelikni lirik ko‘lamda ifodalash mahoratini namoyonidir.

Usmon Azim ayrim dramalarining mazmuni, fabulasini dastlab uning she‘rlarida uchratamiz. “Bir qadam yo‘l”, “Kunduzsiz kechalar”, “Tong otgan tarafflarda” kabi pesalarning qisqa badiiy tarhi shoirning she‘r va hikoyalarida mavjud.

“Umrni baxshida etmoqqa bir narsa arzishini sezaman – ADABIYOT!” – degan edi shoir bundan ko‘p yillar oldin yozgan bir essesinde. Umrni bag‘ishlagan yo‘l o‘zingni va o‘zgalarning uyg‘onishiga, o‘sib kamolga yetishiga, Haq yo‘lini topishiga ko‘mak bergan, quvonishiga, kuyib-yonishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, bu yo‘l sharafli yo‘ldir.

Bu sharafli yo‘ldagi katta ijodkor – O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimdan har doim kitobxon qalbiga yorug‘ nur olib kiradigan, ko‘ngilni o‘stiradigan yangi-yangi she‘rlarni kutaveramiz.

Karomat MULLAXO‘JAYEVA

“Ko‘ngil – Tangrining taxti”, deb yozadi Yunus Emro. Bu “taxt” adabiyotning abadiy mavzusi bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A‘zam asarlarida ko‘ngil motivi o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Bir qarganda, jaydari, qo‘rs ko‘ringan qahramonlarning go‘zal ko‘ngilini, ajib hislarini qalamga oladi adib.

Qahramonlar tasvirini chizishda adib shaxsiyatidagi ko‘ngilchanlik, ta’sirchanlik bo‘rtib turadi va bu o‘quvchida hamdardlik hissini uyg‘otadi. Yozuvchi buni atayin qilmaydi, o‘ylab topmaydi, balki bu sifatlar aslida uning tabiatida, fitratida bor. Uning, deylik, “Pakananing oshiq ko‘ngli” asarida ham gap qahramonning pakanaligida emas, oshiq ko‘nglida.

Yozuvchi oshiq ko‘ngilni shunday ta’riflaydi: “Lekin – ko‘ngili!.. E, bu bir boshqa dunyo ekan. Ko‘ngil – podsho. Ko‘ngil – xazina. Ko‘ngil – balo”. Yozuvchi uchun ko‘ngil – ilohiy makon, uning hududi cheksiz, sirlari maxfiy.

KO‘NGIL – XAZINA, KO‘NGIL – BALO

“NOSTANDART” OBRAZLARINING INJA TUYG‘ULARI

Erkin A‘zamning “Zabarjad”, “Suv yoqalab”, “Shovqin” asarlari qahramonlari hech kimga o‘xshamaydi – “nostandart”, qoliplarga sig‘maydi: beg‘araz, samimiy, ammo quv va shumligi o‘ziga yetar darajada. Jamiyatga moslasha olmaydigan, hammabop bo‘la olmaydigan o‘jar, o‘r, qaysar... Asarda qahramon xato qiladi, noto‘g‘ri ishga qo‘l uradi, ko‘nikilmagan yo‘llarni tanlaydi, aqli istamagan yumushlarni boshlaydi, ammo uni yomon ko‘rib qolmaydiz.

Yozuvchi qahramonlarining bilib-bilmay, istab-istamay maqsad yo‘lida tentirashi, g‘ayritabiyy, aqldan tashqari qilayotgan “hunar”lari, qiliqlari ajablanarli bo‘lsa-da, nima uchundir ularga baribir xayrixoh bo‘laveramiz, ishonaveramiz, ular bilan birga kuyib-pishamiz, yaxshi ko‘raveramiz...

Ular jamiyat bilan munosabatda bayroq ko‘tarib shiorlar orqasida yashamaydi, balki avvalo ko‘ngil inqilobini afzal biladi.

Adib qahramonlari noodatiy qarashlari va o‘zini tutishi bilan mulohazaga chorlaydi. Bu qahramonlar, qay yo‘sinda bo‘lsa-da, shizning qalbingizga sekingina kirishi yoki his-tuyg‘ularingiz tirqishidan mo‘ralashi mumkin.

SHOHSATR VA BADIY NIYAT

Lev Tolstoyning “Asar gohida bir satr uchun yoziladi” degan so‘zlari badiiyatning javharini anglashga yordam beradi. Mana shu javhar g‘oya bilan birlik ketadi. Ijodkorning asl maqsadi shu satrlarga joylangan bo‘ladi.

Zehn solib qaralsa, ayrim asarlarda ana shu kalit so‘zni topish mumkin ekan. Biz bu so‘zga shartli ravishda “shohsatr” deb nom berdik. Erkin A‘zam asarlariga shu nuqtayi nazar bilan yondashib, o‘sha shohsatrni topish umidida yozuvchi asarlaridagi ba‘zi o‘rinlarga diqqat qaratdik.

Dastlab “Zabarjad” qissasini olaylik. Asar “indamas” (o‘z oti o‘zi bilan – S.T.) va Zabarjadning xurfiyona uchrashuvi bilan boshlanadi. Yo‘q, buni suhbat deb ham bo‘lmaydi. Chunki bunday epizodlarda so‘zlovchi-javrovchi bir kishi – u ham bo‘lsa Zabarjad. Bizningcha, qissa aynan mana shu suhbat uchun yozilgandek... Bor gap shu yerda aytiladi. Qolgan yozuvchi maqsadini oydinlashtirish, kuchaytirish, bo‘rttirish, asoslash, dalillash uchun xizmat qiladi. Qissa boshidanoq asar kodi imo-ishoralar orqali beriladi.

Tanishtiruvning o‘zi ham savol, ham javob: “Zabarjad degan bir... qiz deymizmi endi, juvonmi...” Endi uning qalbiga chuqurroq razm solish uchun “ichkarisi tomon mo‘ralasak: “Ko‘nglidan kechgani esa bunday: “Shugina kerakmidi sizlarga? Mana, tamom! Ko‘nglingiz joyiga tushdimi, jonim? Battar bo‘ling!” Shu o‘rinda Zabarjadda ikkilanish, bo‘linish yuz beradi: aql va ko‘ngilning mojarosi. Biri ikkinchisiga iddao qiladi. Ammo afsus-nadomat bormi bu “ta’na-malomatda”? Bizningcha, qaytaga “yaxshi bo‘ldi, o‘zim o‘zimdan qutuldim”, deydi. O‘z-o‘zidan qutulish – tutilishmi? Ko‘ngil aqlga izoh beryaptimi yoki aql ko‘ngilga yupanch bo‘lmoqchimi?

KO‘NGIL MULKI SOTILMAYDI!

Asar sahnalaridan birida Zabarjad tarvuzning “yuragi”ni ajratib olib “do‘stining og‘ziga majburlab” tiqishi bejiz emas. Bu kabi epizodlar asarda talaygina. Ammo qissa matnida ochiq aytilmagan aytilmay qolgani ko‘p. Zabarjadning o‘zi tashabbus ko‘rsatib pinhona uchrashuv tashkil qilmaganda, “indamas”ning jur‘ati yetarmidi... Qishloqdagi yigitchaga qaratga “Yurakka buyurib bo‘larkanmi, ukajon” deydi. Bu qizning hayotdan topgan va o‘zi iqrar bo‘lgan, bilgan haqiqati, falsafasi!

Yozuvchi suhbatlardan birida shunday deydi: “Zabarjad” qissasining dastlabki nomi “Mulk” edi. Zabarjadning bir gapi bor: “Mulk sotilmaydi. Ko‘ngil mulkini savdoga qo‘yib bo‘lmaydi!” Mana shu jumlada asarning asos mag‘zi to‘liq qamrab olingan.

Erkin A‘zam doimo “indamas”ni (“Zabarjad”) parda ortida tasvirlaydi. Farhodda (“Shovqin”) esa aksincha. Vika nima uchun Farhodga bog‘langanini o‘zi anglab yetmaydi, obraz mantig‘i yetarli dalillanmagan. Yozuvchi faqat Farhodning muhabbatini muhim deb biladi, Vika faqat seviladi. Vikaning sevishi aytilmaydi. Ammo ikkinchi taraf ham befarq emasligiga ishora bor, ammo “ko‘rsatilmaydi”.

Zabar, Vika, Dilya... Yozuvchi o‘zi suygan qahramonlarini shunday ataydi. Bu atovda muallifning ham mehr-muhabbatini sezish qiyin emas.

“BO‘YIMDAY BO‘Y TOPDIM-U...”

Erkin A‘zamning keyingi asarlaridan biri “Suv yoqalab” deb nomlanadi. Bir vaqtlar rais bo‘lib, amal supasida ko‘p ishlarni ko‘rgan, bilgan Bolta Mardon qishloq bo‘ylab aylanadi. Suv tanqis, suv janjali bahonasida yashagan makonini birma-bir aylanib chiqadi.

Yozuvchining niyati asta-sekin ochila boradi. Bolta Mardondagi “aql” o‘zidan rozi bo‘lsa-da, ko‘ngil kemtik. Kentiklikni hech narsa to‘ldira olmaydi. Vaqt hukmini o‘tkazib bo‘lgan. O‘zini ko‘ndirib yashashdan zadda bo‘lgan inson umri nihoyasida dilidagini tiliga ko‘chirishga majbur. Bundan bu yog‘iga bu armonni ko‘tarish og‘irlik qiladi.

Bolta Mardon yuragidagi bu yukdan qutulish uchun zimmasidagi yukni yekalaydigan odam qidiradi. Dardni birovga aytib, undan qutulib bo‘larmikin? Aytsa, kimga aytadi? Bu – avvalgisidan ham og‘irroq yumush. Buning uchun ko‘ngil mahrami, sirdosh, “juragi” bor mard bo‘lmog‘i lozim. Oqil ota o‘ylay-o‘ylay bu mardni topadi. U sirga faqat kenja o‘g‘il munosib mahram bo‘la oladi, deb o‘ylaydi. Farzandlar orasidan hali uylanmagan kenjaning loyiq ko‘rilishida ham gap ko‘p... Mana asardagi bizni qiziqitirgan shohsatrlar: “Tag‘in bir gap, o‘g‘lim. Ertaga bir kun orqamda qolmasin-da. Sen endi yosh bola emassan, bilib qo‘yganing ma‘qul. Noligan – noshukr deydlar. Enangni aytaman-da, yaxshi xotin. Yuvoish. O‘zim ham undan biror yomonlik ko‘rmadim. Lekin ko‘ngil qurg‘ur he-ech... Bilmadim – nimaga...”

Rafiqasidan hech bir yomonlik ko‘rmagan, bolalarining mehribon onasi, “yuvosh”, mushtipar ayol sadoqatli bo‘lsa-da, ko‘ngilni ko‘ndirish qiyin. Bolta Mardon xalq hikmati bilan aytganda, “bo‘yiday bo‘y topdi-yu, ko‘ngliday ko‘ngil topmadi”... Aql bilan ko‘ngilning murosaga kelishi, ko‘ngilga buyurish, majburlab itoatda saqlash oson emas. Ko‘ngil tubidagi dardlarning yuzaga qalqib chiqishi, kimnidir sog‘inishini, ko‘ngli nimadir tusashini Bolta Mardonning o‘zi anglay olmay halak.

KO‘NGILNING “SHOVQIN”I TINARMIDI?!

“Shovqin” romani qahramoni Farhod Ramazon “qulog‘i”dagi shovqinni yo‘qotish ilinjida yurt kezadi. Hayotidan o‘zini, o‘zligini qidirish, kechmishini taftish etish orqali Farhod ko‘ngil royishini topadi. U bir muddat Vika bilan uchrashadi, guyoqi qidirganini topganday bo‘ladi. Topib ham ko‘ngil deganlari tinchmaydi-da. Xotirasida iz qoldirgan hislar iskanjasida umrguzaronlik qilayotgan Farhod ikki dunyo oralig‘ida yashaydi. Real hayotda tupp-tuzuk amaldor, oilasi, bola-chaqasi bor to‘kis odam. Ammo ichkaridagi “shovqin” uning tinchini buzadi, oromini oladi. Ko‘ngilni davolab bo‘larmikin?... Farhod o‘zini qiynagan so‘rovlarga javob topish uchunmi, olisga – o‘tmishga yo‘l oladi. Hadik-xavotirlarni bosib o‘tib, Farhod Farhodovich bilan yuzma-yuz kelishga kuch topadi. Farhod Ramazon jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me‘yorlari bilan kelisha olmaydimi? Isyon deb ataganimizni mana shu an‘anaviy tutumlarga nisbatan deb ham qabul qilish mumkin.

Shu vaqtgacha Farhod ko‘ngil g‘alayonlarini bosim bilan ushlab turishga muvaffaq bo‘ladi. Isyon qo‘zg‘olonga yo‘l beradi. Majburiyat ostida zo‘rlab bostirib turilgan alanga tobora shiddat olib, lovilab, gurillab ketadi. Gurillagan olov yo‘lidan chiqqan narsalarni ham o‘zi bilan olib ketadi. Olovda yonayotgan narsaning nima ekani ahamiyatsiz. Bu asardagi shohsatrni mana shu lavhada deb bildik: “Qarang, hayot o‘zi g‘ala-g‘ovur shovqinga to‘la-ku, to‘g‘rimi? Ko‘ngilni o‘ylang, ko‘ngilni avaylang, inim. Ko‘ngil – o‘zingizniki, qolgan shovqin-suron esa dunyoga tan. Odamzodning millati har xil bo‘lishi mumkin, lekin uning o‘zi yagona, bir nusxalik xolos! Ko‘ngil ham shunday – bittagina, yakka-yagona”.

Umuman olganda, Erkin A‘zam qahramonlari uchun Ko‘ngil rozi oldidan barchasi o‘tabersin! Ular uchun muhimi – ko‘ngil rozi, yurakka quloq tutish. Zabarjad, Bolta Mardon, Farhodning qarashlari ma‘lum ma‘noda muallifning qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Nazarimizda, bu o‘y-fikrlar muallifning ham hayot haqidagi falsafasi, iqrori. Zotan, har bir badiiy asar yozuvchining o‘zi anglagan va shuni ma‘qul bilgan hayot falsafasining aksidir.

Sanobar TO‘LAGANOVA



TALQIN

NAVOIYNING O'LMAS ZAFARNOMASI

“Navoiy – buyuk shaxsiyat, ammo bugun biz uni faqat o'tmish ramzi sifatida emas, balki yangi tafakkurning ma'naviy asosi sifatida qabul qilishimiz kerak.

Shavkat MIRZIYOYEV

Buyuk millatlar dunyo sahnasida o'z ma'naviyati, qalb sadosi, tarixiy merosi va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanilib kelgan. Ular qalbida esa bir necha avlodlar uchun yelkadosh, ruhiy kamolot sari yetakchi bo'lgan shaxslar tirik ma'naviyat timsoliga aylanadi. Shu ma'noda, o'zbek xalqi uchun Alisher Navoiy nainki o'tmishning buyuk shoiri yoki mutafakkiri, balki ma'naviyat, adolat va yuksak tafakkurning tamsilchisi sifatida yuraklardan joy olgani bejiz emas. Bugungi kunda esa Navoiy merosini davlat siyosatining ma'naviy tayanchi sifatida talqin etish – Yangi O'zbekiston mafkurasida alohida o'rin tutmoqda.

Hazrat Navoiyning tafakkuri hozirgi vaqtda ham ma'naviy yetuklik, ruhiy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyat belgisi sifatida yashamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ma'naviyat, adabiyot va tarixga qaratilayotgan e'tiborda ham ana shu o'lmas ruh ustuvorligini ko'ramiz.

Shu o'rinda aytish lozimki, tarixdagi har qanday mustahkam saltanatning asosini ikki ulug' kuch – siyosiy barqarorlik va ma'naviy yetakchilik tashkil qilgan. Amir Temur davlati va temuriylar sulolasi ham aynan shu ikki tayanchga suyanagan. Bu tarixiy saboq Navoiy va Husayn Boyqaro do'stligida yanada yorqin ifodalangan: davlat ishlarida ma'naviy yetakchilikka alohida o'rin berilgan. Ulug' navoiyshunoslar ta'biri bilan aytganda, “Navoiy so'z bilan yuritgan siyosat, Husayn amal bilan boshqargan davlat edi”.

So'nggi yillarda ilm-fan, ma'naviyat, adabiyot va san'atga davlat siyosati darajasida yondashilmoqda. Jumladan, o'nlab fan va san'at arboblari davlat mukofotlari hamda akademik ilmiy unvonlariga sazovor bo'ldi. O'qituvchilar, olimlar, ijodkorlarga moddiy va ma'naviy rag'bat ko'lamini ortdi. Yangi O'zbekistonda ma'naviyat davlat rivojining strategik ustuniga aylandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Alisher Navoiy merosini tiklash, xalq orasida yanada keng targ'ib qilish borasida navoiyshunoslik yangi davrga qadam qo'ydi. “Yosh kitobxon” tanlovi, Navoiy g'azallarini yoddan aytish bo'yicha milliy tanlovlar, kitobxonlik uchun mukofotlar va rag'batlantirish mexanizmlari davlat siyosatining ajralmas qismlaridan biriga aylandi. Bu esa ilm va ma'rifatga bo'lgan ommaviy qiziqish muhitini shakllantira boshladi.

Baholash tizimining adolatliligi, ochiq va shaffof test usuliga o'tishi, talabalarning xalqaro ta'lim maydoniga chiqishi, nufuzli chet el universitetlarida tahsil olishi odatiy holga aylana bordi.

Alisher Navoiydek turkiy tilda ijod qilgan buyuk adabiy dahoning aynan bizning xalqimizdan yetishib chiqqanini iftixor bilan e'tirof etish mumkin. Hazrat she'riyati shu darajada hayotiyligi, “Xazoyin ul-maoniyy” to'plamidagi to'rt devonda o'ttizdan ortiq kasb egalari, yuzdan ziyod tarixiy, adabiy, diniy va boshqa soha vakillarining nomi tilga olinadi. Umumbashariy g'oyalarga boy bo'lgan bu

ijod zamonlar o'tgan sari yangi ma'nolar kasb etmoqda, kitobxonlar geografiyasi esa tobora kengayib bormoqda.

Agar shoir o'z zamonida:

“Olibmen taxti farmoning'a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson”,

ya'ni, lashkar tortmasdan Sharqiy Turkistondan to Xurosongacha o'z kitoblari va g'oyalari orqali hukm yuritganini ta'kidlagan bo'lsa, bugungi kunda uning ijodi Xitoy va Yaponiyadan tortib, Rossiya, AQSh, butun Yevropa va Osiyoda o'qilayotganini faxr bilan aytishimiz mumkin. Bu esa Alisher Navoiyning ma'naviy merosi nafaqat milliy, balki global qadriyatga aylanganidan dalolat beradi.

Daho shoirimiz xuddi shu kunlar kelishi muqarrarligini bilganday, jahon xalqlariga murojaat etgan va ularni tinchlik va birdamlik sari chorlagan:

Olam ahli! Bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizg'akim, erur yorlig' ish.

Bu misralar shunchaki badiiy ibora emas – bu

Shu ma'noda, Navoiy ruhiyati bugungi O'zbekiston siyosiy-ma'rifiy hayotida yangicha mazmun kasb etmoqda. Davlat tashabbuskorligida har yili Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlar, xalqaro forumlar, tanlovlar tashkil etilayotir. Bu jarayonda nafaqat adabiyotshunoslar, balki diplomatlari, siyosatchilar, yoshlar va ommaviy axborot vositalari ham faol ishtirok etmoqda. Zero, Navoiy faqat o'tmishning shoiri emas – u bugunning ham, ertaning ham ma'naviy mayoqlaridan biridir.

O'rta asrlarda dehqonchilikka asoslangan xalqning hayot tarzi oson emas edi. El-ulusning g'am-alami va tashvishlarini Xoja Ubaydulloh Ahror, Abdurahmon Jomiy kabi ma'naviy rahnamolar, Alisher Navoiy kabi siyosat va adabiyot vakillari qalban his etib, jon fido etib yengillatishga urinayotgan edi. Amir Alisher xalq xizmatidagi faoliyatini shunday ifoda etgan:

Vahki, umrum barcha zoye' bo'ldi el komi bila,
Bodai nob o'rnig'a xunoba oshomi bila.

Prezidentimiz
tashabbusi bilan
2025-yil Navoiy
viloyatida
“Alisher Navoiy yili”
deb e'lon qilindi.



Olam ahli! Bilingizkim,
ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizg'akim,
erur yorlig' ish.

Mazmuni: *men butun umrimni elning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga sarf etdim; toza may ichish o'rniga, qon-zardob yutdim.*

Mo'tabar manbalarda kelgan xabarlarida qayd etilishicha, el uchun xizmat qilish va ehson eng ulug' savobdir. Shu bois Alisher Navoiy o'z boyligining 95 foizini xalq ehtiyojiga bag'ishlagan: har yili ikki mingga yaqin muhtoj kishiga kiyim-bosh ulashgan, yuzdan ortiq xayrli inshootlar – masjid, madrasa, ko'priklar va shifoxona barpo etgan hamda ularning barqaror faoliyati uchun vaqf mablag'lari ajratgan.

Bugungi kunda davlat tomonidan kam ta'minlangan, moddiy ehtiyojmand oilalarga ko'mak berish, ularning hayot sifatini yaxshilash maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftar”, “Yoshlar daftar” kabi tizimli yordam mexanizmlari joriy etilgan. Bu ham ulug' shoir an'analarning yangi davrdagi mukammal davomidir.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk zotlarning tavallud sanalari davlat rahbarining maxsus qarorlari bilan yurtimizda keng nishonlanishi xalq va ziyolilarga kuchli ta'sir qilib, qalbida chuqur ehtirom hissini uyg'otdi.

Xalqaro Alisher Navoiy mukofotining ta'sis etilishida ham aynan Yurtboshimizning tashabbusi hal qiluvchi o'rin tutdi. Bu mukofot nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida Navoiy merosini tadqiq etish va targ'ib qilishda katta ruhiy ko'tarinkilik bag'ishladi. Yaqinda Ogahiy mukofotining ta'sis etilishi ham Prezidentimizning ma'naviyat ahliga yana bir samimiy e'tibori sifatida xalqimiz qalbidagi iliq qabul qilindi.

Ayniqsa, Adilbar xiyobonida Alisher Navoiy va ul zotning ma'naviy shogirdlariga bag'ishlab barpo etilgan yirik yodgorliklar adabiyot va san'at ahli uchun mislsiz havas va iftixor manbaiga aylandi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bunday keng qamrovli, ezuq g'oyaga asoslangan madaniy-ma'rifiy kompozitsiyalarning mavjud emasligi, albatta, bu tashabbusning ilg'orligini yaqqol ko'rsatadi.

Aynan shu kabi tashabbuslar orqali mamlakatimizda adabiyot va ma'naviyat islohotlari faqat shior darajasida emas, balki amaliy, moddiy va ma'rifiy harakatlarga aylanib bormoqda. Ayniqsa, Navoiy hayoti va merosini o'rganish, uning asarlarini asli, tabdili va tarjimalarida nashr etish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kamina “Mumtoz so'z sehn” nomli kitobimda Alisher Navoiyning teran o'rganish va xalq orasida keng targ'ib qilish bo'yicha bir qator amaliy taklif va rejalarni ilgari surgan edim. Ushbu rejaning eng muhim bandlelardan biri sifatida shunday mulohaza bildirilgan edi: “Alisher Navoiy asarlarining syujetli qismi (ya'ni, dostonlari), shuningdek, uning diniy, ilmiy, tarixiy va badiiy merosi bugungi adabiy tilda tabdil etilmog'i lozim”.

Bugun esa aytish mumkinki, ushbu takliflar davlat siyosati darajasida hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, “Lison ut-tayr” dostonining hozirgi o'zbek tilidagi nasriy va she'riy tabdillari, “Xamsa” dostonlarining ikki uslubdagi bayonlari, “G'aroyib us-sig'ar” devoniga bag'ishlangan

o'nta kitobdagi sharhlar, “Hayrat ul-abror” dostoniga bag'ishlangan uchta izohli nashr hamda “Navoiy nasriy asarlari”ning soddalashtirilgan tabdillari bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan izchil ishlar qatoridadir.

Ushbu jarayondagi ilmiy faoliyat va niyatlarning yuksak maqsadlarga yo'naltirilganini xalqaro Alisher Navoiy fondi ijrochi direktori Olimjon Davlatov ham o'z so'zboshisida zukkolik bilan ta'kidlaydi: “Yoshlarimiz uchun Alisher Navoiy asarlari tilining murakkabligi bizga yaxshi ma'lum. Ammo bu yo'ldagi sa'y-harakatlarimiz buyuk maqsadlarimizga nisbatan hanuz yetarli emas”.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yil Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili” deb e'lon qilindi. Bu qaror faqat bir hududga xos tadbir emas, balki shoir merosini chuqur o'rganish, uning ilmiy-adabiy faoliyatini jahon miqyosida targ'ib etishda yangi bosqichni boshlab beruvchi ulkan siyosiy-madaniy tashabbusdir.

Alisher Navoiyning boy ilmiy merosini bugungi avlod saviyasi va qiziqishiga mos ravishda soddalashtirish va sharhlash vazifasi ham mazkur qarorda aniq bayon etildi. Bu esa mutaxassis olimlar, navoiyshunoslar, tilshunos va adabiyotshunoslar zimmasiga ma'naviy mas'uliyat yukladi. Ayni paytda esa, yurt ravnaqi va ma'naviyat yuksalishi uchun zarur ijtimoiy ehtiyojga aylandi.

Ushbu vazifalarning yuqorida qayd etilgan ijrosiga taniqli olim va shoirlar, jumladan, akademik Shuhrat Sirojiddinov, shuningdek, Qosimjon Sodiqov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Bahodir Qobilov, Abdumurod Tilavon, Ibrohimjon Saydullayev, Yusuf Tursunov, Abduhamid Pardayev singari taniqli olim va ijodkorlar kamarbasta bo'ldi.

Natijada “Xamsa” dostonlarining takroriy nasriy bayonlari, “Mahbub ul-qulub” va “Muhokamat ul-lug'atayn” asarlarining yangi tabdillari, shuningdek, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Vaqqiya”, “Munshaot”, “Munojot”, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarining zamonaviy uslubdagi talqinlari, “Lison ut-tayr” va “Xamsa” dostonlarining she'riy talqinlari nashr etildi. Ushbu tabdillar nafaqat adabiy muhitda, balki ta'lim muassasalarida ham keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon Navoiy merosini jonli o'qish va anglash imkoniyatini yanada kengaytirmoqda.

Davlat rahbarining shaxsan mazkur yo'nalishni doimiy qo'llab-quvvatlayotgani, mutaxassislarning fidokorona mehnati bilan uyg'unlikda, buyuk navoiyshunoslik maktabining kelajagi ravshan ekanini anglatadi. Chunki bu harakatlar orqali buyuk adibning asarlari nafaqat ilmfan uchun, balki xalq ma'naviyati uchun ham bebaho boylik sifatida tiklanmoqda.

Menday mo'ysifad ham bu tabarruk xizmatdan chetda qolganmi yo'q. “Layli va Majnun”, “Lison ut-tayr” dostonlari hamda “Muhokamat ul-lug'atayn” asarining tabdil ishlarida ba'zan hamkorlikda, ba'zan mustaqil ravishda faol ishtirok etdim. Shuningdek, “Xamsa” dostonlarining she'riy tarjimasiga mas'ul muharrir sifatida amaliy ko'mak ko'rsatdim.

Ayniqsa, “Xamsa” dostonlarining tabdili va aslyiat nashrini 2006, 2009, 2014, 2018 va 2020-yillarda besh marotaba chop ettirishga muvaffaq bo'ldim. Shuningdek, “Xamsa”ning alohida mukammal nasriy bayoni nashriga ham mas'ul muharrir sifatida hissa qo'shdim.

Xalqaro Bobur jamoat fondi (raisi Zokirjon Mashrabov) rayosati a'zolari safida, hazrat Alisher Navoiy qabr-maqbarasiga e'tibor va ehtirom ifodasi sifatida Hirot shahriga maxsus safar uyushtirilib, u yerga G'ozg'on marmarlaridan ishlangan sag'ana va sharqona o'yimakorlik bilan bezalgan eshik olib borilib o'rnatildi. Bu ezuq amal tarixiy xotira va ma'naviy merosga bo'lgan yuksak hurmat ifodasidir. Shu bilan birga, fond xizmatchilari Navoiy maqbarasi atrofidagi hududni obodonlashtirishga ham ulkan hissa qo'shib, u yerga 2 ming tupdan ortiq manzarali daraxt va gul ko'chatlarini ekishdi.

Alisher Navoiyning yuksak siymosini dunyo miqyosida munosib targ'ib etish yo'lida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Jahonning beshta yirik davlati – Rossiya, AQSh, Yaponiya, Ozarbayjon va Qozog'istonda buyuk mutafakkiriga bag'ishlab barpo etilgan haykallar bu yo'nalishdagi islohotlarning yorqin samarasidir.

Ushbu yirik yutuqlar nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham Alisher Navoiy ilmi va adabiyotiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Albatta, bunday ulkan ma'naviy taraqqiyotning zamirida Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma'naviyat sohasidagi oqilona, strategik pozitsiyasi, tashabbuskorona islohotlari va ilm-fan, madaniyat, adabiyot ahliga ko'rsatayotgan beqiyos e'tibori mujassamdur. Bu haqiqat xalqimizning turli qatlamlari, xususan, ziyolilar va yoshlar orasida yaxshi anglanmoqda.

Davlatimiz rahbarining hozirgi paytda ma'naviyat sohasiga qaratgan alohida e'tibor va g'amxo'rligi yuksak tahsinga loyiq. Zero, bu borada olib borilayotgan islohotlar, tashabbuslar va amaliy choralar mamlakatimizda ma'naviy yuksalishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Hurmatli Prezidentimizning adabiyot va ma'naviyat sohasidagi qaror va farmonlari shu zaylda izchillik bilan amalga oshirilgan ekan, biz ham daho shoirimiz Navoiyning jahonga zafarli yurishiga guvoh bo'lamiz, inshaolloh.

Navoiy – faqat bir millat yoki bir makon uchun emas, balki turkiy xalqlarning umumiy iftixori, jahon madaniyatining beqiyos boyligi ekanini qayd etish joiz. Men bu haqiqatga butun qalbm bilan ishonaman.

Vahob RAHMONOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi





MILLAT FIDOYILARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi 2024-yil 19-iyuldagi qarorida qayd etilishicha, 1937–1953-yillarda mustabid sovet tuzumi tomonidan yuz mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag'on qilingan. Ularning 13 ming nafari otib tashlangan. Minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunga jo'natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar, ularning oila a'zolari ham bo'lgan.

Mustaqilligimiz sharofati bilan, ayniqsa, keyingi yillarda Vatan istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo'lda qurbon bo'lgan ota-bobolarimiz hayoti va faoliyatini atroflicha o'rganish, tadqiq etish, nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, ushbu qaror yosh avlodni buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalashga, ota-bobolarimiz jasorati va ibratli hayot yo'llarini yanada keng targ'ib etishga xizmat qiladi. Biz bu tarixiy hujjatdan ruhlanib, sho'ro davrida dushman atalib, qatl qilingan uch aziz siymo haqida hikoya qilmoqchimiz.

Bu fidoyi insonlar Buxoro amirligida ulkan mavqega ega Eshoni Sudurlar hisoblanadi. "Sudur"lik – amir tomonidan o'z davrining ma'rifat va shijoat ahliga berilgan yuksak unvon sanalgan.

Qatag'on qurbonlari haqidagi izlanishlari bilan el nazariga tushgan tarixchi olim Bahrom Irzayev biz nazarda tutayotgan sudurlarning biri haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

1931-yil 23-iyunda OGPU qo'shinlari 10-otliqlar polki 2-divizioni jangchilari va chekistlar tomonidan Buxoro amirligining mashhur lashkarboshisi Ibrohimbek yarador holda qo'lga olinadi. U avval Stalinobodga (hozirgi Dushanbe), so'ngra Toshkentga olib kelinadi. Chekistlar tomonidan o'tkazilgan tergov va dahshatli qiynoqlar Ibrohimbek barobarida u zot bilan Vatan tuprog'iga qadam qo'ygan, erk va adolat uchun mardona kurashgan 15 nafar qo'rboshiga nisbatan ham qo'llaniladi.

1931–1932-yillarda ularning barchasi qizil armiyaga qarshi harakat qilganlikda ayblanadi va SSSR Xalq komissarlari soveti (XKS) huzuridagi OGPU kollegiyasi majlisining 1932-yil 13-aprel-dagi qarori bilan o'lim jazosiga hukm qilinadi. Siyosiy idoraning maxfiy hujjatida keltirilgan otillarining ro'yxati quyidagicha: "Ibrohimbek Chaqaboyev, Sulaymon Salohiddinov (Eshoni Sudur), Abduqayum parvonachi Ulayev, Eshon Isoxon Mansurxonov, Alimardon dodxoh Muhammedov, Ortqi dodxoh Ashirov, Ko'ganbek Kenjayev, Toshmat Xo'jaberdiyev, Mulla Niyoz parvonachi Hakimov, Alet (Arlot) polvon Elmirzayev, Shohasan Imonqulov, Ko'ganbek Sheraliyev, Mulla Ahmadbiy Saidov, Mirzaqayum Sherov, Azim Marqa Ostonaqulov, Eshon polvon Bahodirzoda".



“Agar tarixni bilmasangiz, demak hech narsani bilmaysiz. Siz daraxtning qismi ekanligingizni bilmaydigan yaproqsiz.

Maykl KRAYTON



JAHON AYVONIDA

VIZA UCHUN GAROV PULI



AQSh Davlat departamenti sayyohlik va biznes vizalariga ariza beruvchilar uchun garov puli joriy etish masalasini ko'rib chiqmoqda. Uning miqdori 5 ming, 10 ming va 15 ming AQSh dollarini tashkil etishi mumkin. Bu haqda "Reuters" agentligi Federal reestrta tayanib xabar bermoqda.

20-avgustdan 12 oylik sinov dasturi ishga tushiriladi. Garov puli viza rejimi bo'yicha qonunbuzarlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan hamda hujjatlar ustidan yetarlicha nazorat o'rnatilmagan davlatlar fuqarolaridan undiriladi. Xorijliklar

ARMONLI YILLAR SADOSI



Ro'yxatdagilar orasida Eshoni Sudur nomi ham tilga olingan. Tarixchi Nasriddin Nazarovning "Muhammad Ibrohimbek laqay" kitobida qayd etilishicha, Eshoni Sudurning ismi Sulaymon Salohiddinov bo'lib, u 1878-yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. Otasi Eshon Salohiddin Buxoro amiri Sayyid Abdulahadxon saroyida qator yuqori lavozimlarda ishlagan. Uning oxirgi lavozimi shayxul-islom bo'lib, mansab jihatidan to'g'ridan to'g'ri amirning o'ziga bo'sungan hamda ta'lim va tarbiya ishlarini boshqargan.

Eshon Salohiddin Sayyid Olimxon taxtga chiqmasidan oldin olamdan o'tgan. O'g'li Eshon Sulaymon yangi amir e'tiborida bo'lib, G'uzorda istiqomat qilgan. Amir unga bosqichma-bosqich o'roq, sudur, sadr unvonlarini bergan. Shu tariqa amirning sadoqatli kishisiga aylangan.

Sayyid Olimxon umidli rejalar bilan Dushanbega yo'l olgach, Eshoni Sudur ham unga ergashib, Sharqiy Buxoroga yuzlanadi. Amir voqealar rivojini kuzatib, bir muddat Afg'onistonda turishni ma'qul ko'radi. Eshoni Sudur ham safdagi o'rmini anglab, 1921-yilda qo'shni davlat hududiga o'tadi. Ibrohimbek bilan sakkiz oy Afg'onistonda bo'lib, 1931-yil iyun oyida u bilan birga yana sovetlar egallagan hududga qaytadi. Bir necha kun tog'ma-tog' yurib Denovga – Xudoynazar komandirning uyiga boradi. Ikki kun mehmon bo'lgach, Denov GPUSiga qurollarini topshirishadi. Eshoni Sudur Ibrohimbek va uning o'n olti safdoshi bilan birga hukumat tomonidan qamoqqa olinib, Toshkentga olib kelinadi va 1932-yilning avgust oyida ularning barchasi qatl etiladi.

Taniqli olim va ijodkor Mirzo Kenjabekning "Buyuk termiziylar" kitobida yana bir boysunlik Eshoni Sudur haqida quyidagicha ma'lumot bor:

Eshoni Sudur (1861–1924) nomi bilan

mashhur bu zotning asl ismi Eshon Tojuddinxon ibn Sayyid Muxtorxonidir. U yetuk olim, yetakchi shayx, oqsoqol, ya'ni xalqning ma'naviy va ruhiy rahnamolaridan biri bo'lgan. U zot o'zbek adabiyotida milliy ozodlik harakati vakillaridan biri sifatida tavsiflanadi. Xususan, atoqli adib Shukur Xolmirzayev asarlarida ("Qora kamar" dramasi) bosqinchi va mustamlakachi bol-sheviklarga qarshi kurashgan shaxs o'laroq ko'rsatilgan.

Eshoni Sudur 1861-yilda Boysun tumani Gaza qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ich ilmi o'z otasidan olgan. 1875–1878-yillarda Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qigan. Madrasada buxorolik Mirzo Muhammad ismli g'oyat bilimdon saboqdosh qaddron do'sti bo'lgan. Zakovati va ilmga chanqoqligi bilan talabalar orasida obro'si ortib, uning yuksak e'tibor va iqtidori Buxoro amirining ham qulog'iga yetib borgan. Amir o'z huzuriga chaqirib, u kishi bilan suhbatlashib, izzat-ikrom ko'rsatgani naql qilinadi.

U elga oqsoqol bo'lib, xalq orasidagi ba'zi bir kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qiladi. Jumladan, o'sha paytda Sherobod bекligida uch urug' (qavm) o'rtasida yer talashish oqibatida chiqqan katta nizo Eshon Tojuddinxon boshchiligidagi bartaraf etiladi.

Shunga o'xshash nizolar Boysun bekligidan to Hisor bekligigacha bo'lgan hududda tez-tez takrorlanib, Eshon Tojuddinxonning adolat-parvarligi, aminligi va voizligi tufayli xalqning osoyishtaligi ta'minlangan.

Shu tariqa obro'si ortib borgan Eshon Tojuddinxonning faoliyati haqidagi xabarlar Buxoro amiriga ham yetib boradi. Sayyid Olimxon Eshonni huzuriga chorlab, suhbat o'tkazadi. Amir o'zining qarshisida halol va pokiza, imon-e'tiqodli, yurt tinchligi va osoyishtaligini hamma narsadan ustun qo'yadigan, Boysun bekligida katta mavqega ega, diyonatli, adolatparvar kishi turganiga amin bo'ladi.

Sudur unvoni bilan taqdirlangan Sayyid Tojuddinxonga Dehqonoboddan Hisorgacha bo'lgan hududning nazorati ishonib topshiriladi. Bu hududdan kelgan daromadning katta qismini u beva-bechora va hojatmandlarga taqsimlab bergan. Amir davlat ishlarida ham Eshoni Sudur bilan maslahatlashgan. Bu holat qizillarning Boysunga bosqiniga qadar davom etgan. Dushmanga qarshi kurash olib borgan milliy ozodlik harakatiga Eshoni Sudur yo'lboshchilik

qiladi. Bosqinchilar dovyurak, kuchli ilm va ma'naviy holga ega bunday yo'lboshchini jismoiy yo'q qilishning turli-tuman yo'llarini izlashadi.

1924-yil qishda Eshoni Sudur zarurat yuzasidan Dehqonobodga boradi.

NKVD xodimlari uning ortidan keladi. Xalq dushmani degan ayblov bilan u Boysunga keltirilib, uch kun ushlab turiladi va otishga hukm qilinadi.

Boysunliklar ayni paytda Sayyid Tojuddinxon tug'ilib o'sgan va sovetlar tomonidan otilgan Gaza qishlog'ida unga atab maqbara tiklashgan.

Uchinchi qahramonimiz nurotalik Eshoni Sudur – Tursunxo'ja Eshonxo'jayev (1872–1936) ham nafaqat hayotligida, vafotidan keyin ham xalq hurmati va e'tiborini qozongan muhtaram zotdir. Bu tabarruk siymo Zarafshon OGPUsi tomonidan 1928-yil 9-avgustda ZOOGUning 48-orderi bilan hibsga olingan. Rasmiy hujjatlarda o'sha paytda uning 64 yoshda ekanligi, savodilligi, madrasani tamomlagani qayd etilgan.

O'sha kuni Nurota shahrining Chillamozor ko'chasidagi Eshoni Sudurning 15-uyi tintuv qilinadi va u sovetlarga qarshi kurashgan jinoyatchi sifatida hibsga olinadi. Qo'yilgan ayblovga ko'ra, u 1917-yilda amirlikdan o'roq darajasini olgach, Kolesov boshliq qizil armiyaga qarshi kurashgan. 2000 odam to'plab, ularni jangga boshlagan va o'zi boshchilik qilgan. Shuningdek, Karmanadan 5000 odamni qurolli guruhga qo'shgan. Qizillar biroz chekingach, Mullo Abduqahhor guruhi bilan birlashib, Kolesovga keladigan yordamning oldini olish maqsadida Malik stansiyasi temir yo'llarini buzdirgan. G'ijduvonda qizillarning otilqlariga bardosh berolmay, 100 nafar yigiti bilan Nurota tarafga chekingan.

Tursunxo'ja oktyabr to'ntarishi vaqtida Buxoro amiri Olimxon va chet ellik harbiy mutaxassis Anvar Posho bilan yaqin aloqada bo'lib, xalqni sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'atgan. U Eshoni Sudurlik darajasini olgach, qizillarga qarshi kurash tashkilotchilaridan biriga aylangan va O'zbekiston JKning 69-,78- va 242-bandlari (RSFSR JKsining 58-13, 59-3 va 173- bandlari) bilan jinoyatchi deb topilgan.

Jinoyat ishi OGPUning 172-24 ayblovi bilan sudga oshirilgan. 1928-yilning 2-noyabrida OGPUning tezkor yig'ilishida qo'yilgan ayblar tor doirada muhokama qilinadi va Eshoni Sudur Samaraga surgun qilinadi. Surgundan qaytgach, Tojikistonning Vahdat tumanidagi Tangai qishlog'ida yashaydi va 1936-yilda shu yerda vafot etadi.

Tadqiqot davomida arxivda saqlanayotgan fotosuratlardan biri e'tiborimizni tortdi. Unda Ibrohimbek qo'rboshining Toshkentda otilgan o'n olti safdoshidan beshovi aks etgan: Ular – Ibrohimbek qo'rboshi, Alimardon Dodxoh, Eshoni Sudur, Mirzaqayum Sherov, Abduqayum parvonachi Ulayev.

O'rtdagi shaxsning surati ostiga "Eshoni Sudur" deb yozilgan, izohda esa bu kishi qo'rboshi Sulaymon Salohiddinov deb tanishtirilgan. Ushbu surat internet tarmoqlarida e'lon qilingan edi. Nurotalik Tursunxo'ja Eshonxo'ja avlodlari suratdagi "Eshoni Sudur" tagmatni egasi bobolari ekanini ta'kidlashadi. Lekin o'n olti qo'rboshi ichida nurotalik Eshoni Sudur bo'lgani

haqida dalil yo'q. Shu nuqtada arxiv suratlarida nomutanosiblik borligi ko'zga tashlanadi.

Davlat arxivida saqlanayotgan ikki surat esa yanada chuqurroq tadqiqot talab qiladi. Suratlar ostidagi yozuvlar xosmi yoki tavakkal yozilganmi, aniqlash lozim.

Yuqoridagi beshtalik suratda bir shaxs "Eshoni Sudur Sulaymon Salohiddinov" deb tanishtirilgan bo'lsa, keyingi surat tagmatnida "Eshon Isoxon Mansurxonov" deb tanishtirilayotir. Yonidagi suratning ostiga esa "Qo'rboshi Salohiddin Sulaymonov" deb yozilgan.

Bu haqda soha mutaxassislari shunday izoh beradi: 20–30-yillarga taalluqli hujjatlarda bu kabi chalkashliklar kuzatilishi mumkin.

Tursunxo'ja Eshonxo'janing fotosurati borligi jinoyat ishi jildida qayd etilgan. 1928-yilning 5-avgustida tergovchi Korenevskiy qori Mahmud Tursunov va Tosh Zaripovlardan "Buxoro amiri Olimxon bir guruh yaqinlari bilan tushgan suratda Tursunxo'ja Eshoni Sudur bormi?" deb so'raganida, har ikkalasi oldingi qatorning so'ngida o'tirgan oq libosli kishi Tursunxo'jaligini aytadi. Taxminlangan shunday bir surat ham arxivdan topildi.

Suratdagilarning bir guruhi mahalliy libosdagi mag'lub amirlik amaldorlari bo'lsa, bir guruhi g'oliblikdan masrur sovet ma'murlaridir.

Rasm ommaga namoyish etish uchun nopisandalik bilan tasvirga olingan bo'lsa kerak. Oddiy odamlarning fikrini chalg'itib, sho'ro tarafda bo'lishga, aks holda, suratda aks etgan kazokazolarning ahvoliga tushishlariga ishoradek tuyuladi.

Bu suratda amir yo'q, faqat yaqin mulozimlar bor. Chunki Sayyid Olimxon sovet ma'murlari qo'lga tushmagan. Nazarimizda, tergovchining so'rog'ida g'alizlik bordek. Bizningcha, uning "Buxoro amiri Olimxon bir guruh yaqinlari bilan tushgan suvratda Tursunxo'ja – Eshoni Sudur bormi?" degan so'rog'i aslida "Buxoro amiri Olimxonning yaqinlari aks etgan mana bu suratda Tursunxo'ja – Eshoni Sudur bormi?" tarzida qo'yilishi kerak edi. Suratni sinchkovlik bilan kuzatgan kishi aytilgan o'rindagi shaxs Tursunxo'janing avvalgi suratlariga o'xshashligini payqaydi.

Haqiqatga yuzlansak, Tursunxo'ja – Eshoni Sudurning tug'ilganiga bir yarim asrdan oshdi (1872), vafotiga esa qariyb bir asr bo'ldi (1936). Hozirda uning to'rtinchi va beshinchi avlodlari bor. Shuning uchun qiyoslarda va tahlillarda ehtimol ustuvor bo'lib qolayotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qatag'on qurbonlari haqidagi mazkur qarori tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishda zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Eshoni Sudur Tursunxo'ja faoliyatiga oid tadqiqotimiz bu siymoni arbob, ulamo, sarkarda, ishchi-dehqonlar sardori sifatida ommaga tanitish yo'lidagi yana bir qadamdir.

Mustaqillik yillarida Nurota shahridagi Titov mahallasi qayta nomlanib, unga Eshon Sudur – Tursunxo'ja nomi berilgan. Ushbu hududda uy-muzeyi ham tashkil etilsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Suyundiql Mustafu NUROTOIY
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi

AQShdan ketsa, pullari viza shartlariga muvofiq qaytariladi.

XITOYDA YANGI VIRUS

Guandun provinsiyasida iyuldan buyon 7 mingdan ortiq odam Chikungunya virusini yuqtirib olgani aniqlandi. Hudud rahbariyati COVID-19 pandemiyasi tajribasi asosida aholi salomatligini ko'zlab qator taqiqlarni joriy etmoqda, deyiladi CNN xabarida.



Bemorlar Foshan shahridagi shifoxonalarga yotqizilgan. Ular vaziyatga qarab, bir hafta yoki butkul tuzalgunicha shu yerda qoladi.

Ushbu virus chivinlar orqali tarqalib, isitma hamda bo'g'imlarda kuchli og'riq keltirib

chiqaradi, alomatlar ba'zan yillar davomida yo'qolmasligi mumkin.

VAZIRLAR AVIAHALOKATGA UCHRADI

Gananing Ashanti viloyatida 6-avgust kuni harbiy vertolyot qulab tushdi. Oqibatda sakkiz kishi halok bo'ldi. Ular orasida ikki nafar vazir ham bor. Bu haqda "Pulse Ghana" xabar berdi.

Qurbon bo'lgan mudofaa vaziri Edvard Oman Boama hamda atrof-muhit, fan va texnologiyalar vaziri Ibrohim Murtal Muhammad foydali qazilmalarni qazib olish va malaka oshirishga qaratilgan dastur doirasida safarga chiqqani ma'lum bo'ldi.



Mamlakatda motam e'lon qilingan. Ayni paytda favqulodda tergov ishlari olib borilmoqda.

ENG UZUN OSMO KO'PRIK QURILADI

Rim Sitsiliya orolini Kalabriya mintaqasi bilan bog'lovchi qurilishi 15,6 milliard dollarlik ko'priklarni qiymlatish ruxsat berdi. Bu dunyodagi eng uzun osma ko'priklarni kutilmoqda, deb yozadi BBC nashri.



Italiya rasmiylari ko'p yillardan buyon Messina ko'prigi loyihasini muhokama qilayotgan edi. Bundan oldingi bir nechta taqdimotlar moddiy, ekologik, xavfsizlik jihatdan yaroqsiz deb topilgan. Bu gal muhandislar zamonaviy me'moriy yechim asosida xavfsizlik to'la ta'minlanishiga kafolat bergan.

O'TA KUCHLI GIYOHVAND MODDA TARQALMOQDA



Dunyo matbuoti giyohvand moddalarning yangi turi – nitazen haqida bong uryapti. Bu haqda "Meduza" xabar berdi.

Nitazen sintetik afyun (opioid) hisoblanib, og'riq qoldiruvchi vosita sifatida yaratilgan, ammo biror marta tibbiyotda qo'llanilmagan, chunki uning kichik miqdori ham o'limga olib kelishi mumkin.

2019-yildan buyon nitazenning 10 dan ortiq yangi turi paydo bo'ldi. 2019-2024-yillar mobaynida bu moddalar Shimoliy Amerikadan Afrika va Osiyogacha bo'lgan turli qit'alardagi 28 mamlakatda aniqlandi va yuzlab odamlarning halokatiga sabab bo'ldi.



“KETDINGMU SEN MENI TASHLAB...”

Boshlanishi 1-sahifada.

Biroq bu talab e'tiborga olinmay, mazkur konferensiya bolsheviklar hukumatining navbatdagi xalqaro darajadagi bir tomoshasidan boshqa narsa emasligi ayon bo'ladi-qoladi. Buni anglab yetgan milliy taraqqiyparvarlarning hafsalasi pir bo'lib, endi mahalliy rahbarlarning bir qismi milliy istiqlochlilik harakatini qo'llab-quvvatlashga kirishadi.

Cho'lpon 1921–1922-yillarda Buxoroda bo'lib, “Buxoro axbori”da muharrirlik qildi. 1922–1924-yillari Abdulhay Tojiyev bilan Farg'onada chiqqan “Darxon”, 1923–1924-yillari “Farg'ona” gazetalarida ishlaydi. Sovetlar 1923-yil Farg'onada bosmachilikka qarshi jiddiy va qonli kurashni avj oldiradi. Bu vaqtda Farg'ona jadidlari va mahalliy rahbarlarning qat'iy talabi bilan milliy ozodlik kurashchilariga nisbatan amnistiya e'lon qilinadi. Jarayonda milliy istiqlol kurashiga bosh qo'shgan bir qism aholini qizil armiyaning muqarrar qirg'inidan saqlab qolishga erishiladi. Shunday og'ir sharoitda Abdulhay Tojiyev Moskvaga chaqirib olinadi. Cho'lpon Toshkentga, do'sti, Turkiston maorif komissari Nazir To'raqulov yoniga kelib, Fitrat, Sanjar Asfandiyyorov, Sultonbek Xo'janov, Sulton Segizboyevlar bilan “Inqilob” jurnalida ishlay boshlaydi.

1923-yil yanvar oyida Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan “Nashri maorif” jamiyati tashkil etiladi. Ular bu xayrli tadbirga vaqf mulklarining imkoniyatlaridan ham umumiy foydalanishni niyat qilib, Vaqf jamiyati muassisligida “Haqiqat” jurnalini chop etishni yo'lga qo'yadi. Bu jarayonda ham Cho'lpon ulkan g'ayrat namunasini ko'rsatadi.

“Nashri maorif” qisqa muddatda vaqf daromadlari va aholidan yig'ilgan pul evaziga kattagina ishlarni amalga oshiradi. Xususan, Orskdan taraqqiyparvar Ahmad Is'haqovning Turkiston tarixiga oid katta kutubxonasini sotib olib Toshkentga keltiradi. Biroq ziyolilarning bu harakati sovet hukumatining jiddiy qarshiligiga sabab bo'ladi. Natijada ko'plab taraqqiyparvarlar ustidan jinoiy ish ochiladi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalilov kabi xalq orasida katta obro'ga ega ziyolilarga qarshi mafkuraviy hujum avj oladi. “Nashri maorif”ning Turkiston hukumatidagi homiylaridan Nazir To'raqulov ham Moskvaga chaqirib olinadi. Shunday bir sharoitda Cho'lpon uchun og'ir kunlar boshlanadi.

Fayzulla Xo'jayev Muhiddin Tursunxo'jayev tomonidan tayyorlangan tavsifnomani imzolab, Cho'lponni Moskvaga yo'llaydi. SSSR XKSda ishlayotgan Turor Risqulov bu ijobiy tavsiyanoma asosida shoimi tarjimonlikka oladi. Shu tariqa Cho'lpon 1924–1927-yillarda Moskvada qolishga majbur bo'ladi.

1926-yili Moskvadagi O'zbek muallimlari instituti direktorligi Hamdam Tojiyevga topshiriladi. Yangi rahbar Cho'lponga institut yotoqxonasidan joy berib, o'sha vaqtda Moskvada bo'lgan Fitratni ham o'zbek talabalariga dars berishga jalb qiladi. Ular



qisqa muddatda barcha o'zbekistonlik talabalarni o'z atrofida jamlab, turli to'garaklar faoliyatini, qizg'in bahs-munozaralarni avj oldiradi, haqiqiy ilmiy muhitni yaratadi. Ammo Markazning “sergak” komsomollari talabi bilan O'zbek muallimlar instituti tugatilib, Cho'lpon ishsiz qoladi...

Yurtga qaytishga qaror qilgan shoir Samarqandga kelgach, 1930-yilgacha G'ulom Zafariy bilan Musiqqa bilim yurtida ishlaydi. Biroq...

1930-yil sovet hukumati funkcionerlari tomonidan o'ylab topilgan “Narkompros ishi” natijasida Botu rahbarligidagi ziyolilar qamoqqa olinadi. Cho'lpon va Fitrat boshida qora bulutlar to'plana boshlaydi. Fayzulla Xo'jayev ularni asrab qolish uchun qo'ldan kelgan choralarni ko'radi. U 1931-yil 300 so'm bilan Cho'lponni yana Moskvaga yo'llaydi. Shunga qaramay, Cho'lponga qarshi hujum susaymaydi. Shoir 1932-yil 27-mayda Moskva 41, Grajdanskaya ko'chasi 101-uydan O'zbekiston hukumati rahbarlari F.Xo'jayev va A.Ikromovlar nomiga yozgan xatida K.Alimovning mahalliy matbuotdagi o'ziga qarshi maqolalarini chop etishni to'xtatishlarini so'raydi.

Fayzulla Xo'jayev hukumat rahbari sifatida Cho'lpon oldida o'zini mas'ul deb biladi. Har gal Moskvaga borganida uchrashib, uni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydi. 1934-yil vaziyat yumshagach, Xo'jayev Cho'lponni yana Toshkentga chaqirtirib, shaxsan o'zi qarshi oldi. Bu gal unga 500 so'm pul va yaxshi sharoitli bir uy ham topshiradi. 1936-yil Cho'lpon kasal bo'lib qolganini eshitgan Fayzulla Xo'jayev ko'rishga boradi va “biz sizni davolaymiz” deb mamlakatning eng yaxshi do'xtirlarini jalb etadi...


Shu yillarda Cho'lpon “Guliston” jurnalida A'zam Ayub, Sanjar Siddiq, Mirkarim Osim, Elbek, Usmon

Nosir, Uyg'un, Oybek, Hamid Olimjon, Maryam Sultonovalar bilan birgalikda ishlaydi.

1937-yil 12-iyul kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Zagvozdin davlat xavfsizligi xodimlari Mavrin, Agabekovlar tomonidan tayyorlangan qarorga imzo chekadi. Unda Abdulhamid Cho'lponga nisbatan aksilinqilobiy unsur sifatida O'zSSR JKning 66-moddasi 1-qismi va 67-moddalari qo'llanadi. 13-iyul kuni hech bir qo'shimcha tekshiruvlarsiz uni qamoqqa olish uchun order yoziladi. Toshkent shahri, Djerzinskiy ko'chasi 49-uy, 2-xonadonda tintuv o'tkaziladi. Tintuv yakunida Qohirada chop etilgan bir nechta jurnal, shaxsiy buyumlar – soat, kamar, pasport, 45 so'm pul, shuningdek, yozishmalar, she'rlar, ko'krak nishonlari ro'yxatga olinib, olib ketildi. O'sha kuni to'ldirilgan shaxsiy anketada uning oilasi sifatida turmush o'rtog'i Yekaterina Ivanovna (30 yosh, uy bekasi), singillari Fozila (30 yosh) va Foiqa (27 yosh)ning nomlari keltirilgan.

23-iyul kuni bo'lgan ilk so'roqda Cho'lpon ming azob va tahqirlar ostida o'ziga qo'yilayotgan barcha ayblovlarini tan olishga majburlanadi. 1937-yil avgust sanasi bilan Agabekov yana bir qarorni imzolaydi. Unda “Cho'lpon savdogarning o'g'li, yirik ulamo Zahiriddin A'lamning jiyani, “Milliy itihod”ga Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan qabul qilingan. Biroq shu vaqtgacha Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulovlar homiyligi ostida qatag'ondan saqlanib qolgan”, deyiladi.

Zagvozdin 22-avgust kuni G'ozli Olim Yunusov va Cho'lponning aksilinqilobiy faoliyatini o'rganish uchun ikki oyga tergovga tortilsin, deb qaror chiqaradi. Aftidan bunga o'sha vaqtda shoirning qamoqqa olinishiga qarshi keng aholi qatlamlari



“Navoiydan keyin chiqqan o'zbek shoirlari ichida eng kuchli lirik shoir Cho'lpondir.

Abdulla QODIRIY

BEHBUDIYNING MA'NAVY MEZONLARI



XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelib, maorif va matbuot orqali yoyila boshlagan ma'rifatarparvarlik g'oyasining yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy edi.

U ma'rifat targ'iboti yo'lida yangi usuldagi maktablar ochdi va dars taqsimotida dunyoviy fanlar ulushini oshirdi. Yangi usulda o'qitish uchun bir qator darsliklar yaratdi va chop ettirdi. Shu bilan birga “Risolayi asbobi savod”, “Risolayi jug'rofiyai umroniy”, “Risolayi jug'rofiyai Rusiy”, “Kitobatul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom” kabi ilmiy asarlar ham yozib, ilg'or qarashlarini o'quvchilarga taqdim etdi.

Biroq taniqli olim Begali Qosimov yozganiday: “Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilinmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham,

malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyi teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi”.

Matbuotning ijtimoiy hayotdagi muhim o'rni va beqiyos ta'sirini to'g'ri anglagan Behbudiy 1913-yilning aprelidan “Samarqand” gazetasini chiqara boshlaydi. U orqali ma'rifatarparlik qarashlarini omмага bevosita yetkazish imkoniga ega bo'ladi. “Bu gazeta Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan forsiy-o'zbek tillarida chiqarilib, el-u xalqning ko'zini ochishiga bois bo'ldi”, deb yozgan edi Abdulla Avloniy ushbu gazeta haqida.

“Samarqand” o'sha davr o'quvchisini ijtimoiy axborot bilan keng ko'lamda ta'minlovchi nashr edi. Unda ilm-fan, adabiyot, tijorat, hunarmandlik va dehqonchilikka doir maqolalar, lavhalar berib borildi. Gazeta sahifalarida Hoji Muin, Said Rizo, Rojjiy va boshqalarning muhim mavzulardagi qator maqolalari e'lon qilindi. Biroq moddiy qiyinchiliklar sabab nashrning 45 ta sonigina chiqqan.

Ammo Behbudiy taslim bo'lmadi. 1913-yil 20-avgustda milliy matbuotimiz tarixida alohida o'rin tutgan “Oyina” jurnalining ilk soni bosmadan chiqdi. Uning vazifasi “millati islomning saodat va salohina, musulmonlarning madaniyat va fununi zamoniyaadan naflanmoqlariga xizmat etishlik” deb belgilangan edi. Abdulla Avloniy bu

jurnal haqida “jurnallarning eng birinchisi va eng yaxshisi edi” deb baho beradi.

Jurnal sahifalarida ilm-fan, ma'rifat, madaniyat, til-adabiyot masalalarini keng yoritdi, nodonlik, jaholat, mustamlakachilikka qarshi turdi. Jurnalda Mahmudxo'ja Behbudiy, Said Rizo Alizoda, Rojjiy, Hoji Muin Shukrullo, Abdurauf Fitrat, Hamza Nioziy va boshqalar o'z maqolalari, she'rlari bilan faol ishtirok etdi.

Birinchii bo'lib “Oyina”da yer kurrasining qalbi – bioshi surati ko'rsatilib, bayon qilindi.

Adib jurnalning ilk sonidagi “Turkiston” maqolasida yurtimizning ko'p asrlik boy tarixi haqida faxr bilan so'zlasa, shu sonidagi “Ikki emas, to'rt til lozim” maqolasida o'sha zamon kishilari uchun ko'p tillarni bilmoqlik muhim fazilatligini uqtiradi. U “Muhtaram yoshlarga murojaat”i (1915-yil, 4-son) bilan o'g'il-qizlarni ilmga da'vat etsa, “Vatanparvarlik kerak” maqolasi (1915-yil, 21-son) orqali vatan tug'yusini anglatishni o'z burchi deb biladi. Publitsistning “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg'ona” yoxud Turonning egizak-tuvama farzandlari”da o'sha davr matbuoti muammolari tilga olinib, “Tanqid saralamoqdir” maqolasida esa ijtimoiy tanqidning mohiyati ochib berilgan.

Shuningdek, “Oyina”ning bir necha sonida Behbudiyning “Sayohat

xotiralari” bosiladi. Adib Haj safari bilan Makka va Madina shaharlariga borishda bosib o'tgan yo'li, mamlakatlar, shaharlar va odamlar haqida hikoya qilarkan, bu asarni o'zbek matbuotida yo'l ocherkineng dastlabki ko'rinishi deya baholash mumkin. Muallif ko'rgan-kechirganlarini yozarkan, o'zga mamlakat va xalqlardagi ilm-ma'rifati, yangiliklarni hikoya qilish asnosida ularni o'z vatani – Turkistondagi ahvol bilan solishtiradi va nodonlik, qoloqlik hollaridan qayg'uradi. Adibning mazkur turkumga kiruvchi “Ismoilbek hazratlari ila suhbat”ida jadedlik harakatining yo'l'boshchisi Ismoil G'asprali bilan uchrashuv haqida hikoya qilinadi.

Adibning “Hushim kelmaydirl” feletonida kulgining yengilroq tus olganini ko'ramiz. Unda o'ziga xos shakl tanlanib, go'yo bir muallif hayotda uchraydigan ayrim illatlar – ba'zi boylarning dabdabali to'y'larga, turli maishat-bazmlarga qanchadan qancha mablag' sarflagan holda yoshlarning ilm olishlari uchun ozzgina bo'lsa-da ko'mak berishdan qochishlari haqida yozishga “unchalik hushi kelmagani” aytiladi. Feleton so'ngida kinoya bilan “Odamlarga tosh otishga hushingiz keladi-ku! Ohistaroq oting. “Oyina”ga tegmasun!” qabilida hazil qilinadi. Bunday misollar publitsistning hajvga g'oyat ustomonligidan dalolat berib turibdi.

va yoshlarning qarshiligini inobatga olgan mahalliy hukumat rahbarlarining Markazga murojaati sabab bo'lgan.

25-sentyabr kuni so'roqda ham Cho'lpon o'zi tanigan-bilgan insonlar haqida berilgan savollarga javob beradi. U qanchalik oqko'ngil bo'lmasin, sovet tuzumi jallodlari Cho'lponga nisbatan inson zoti chiday olmaydigan zulmni susaytirmaydi. Natijada, 1-noyabr kuni taqdirga tan berib, “jinoiy ishimni ko'rdim, roziman, boshqa qo'shimcham yo'q, ishni yopinglar”, deb yozib berishgacha boradi. Shundan so'ng ham har ehtimolga qarshi 13-noyabr kuni Cho'lpon ishi yuzasidan yangi bir qaror chiqariladi. Unga ko'ra, Cho'lpon 1932-yildan go'yoki Yaponiya foydasiga josuslik qilgan emish. Shu-shu, Cho'lponni boshqa bezovta qilishmaydi, ammo qariyb bir yil sovuq turmada saqlashadi.

1938-yil oktyabri boshida Cho'lpon G'ozli Olim Yunusov va Abdurauf Fitrat bilan yuzlashtiriladi. Afsuski, so'roq bayonnomalari kabi yuzlashtirishlar ham amaliy ahamiyatga molik ko'rilmaydi. Buning bosh sababi hukm allaqachon Markaz tomonidan chiqarilib, taraqqiyparvarlar mahv etilishi, ularning nomlari ham tarix sahifalaridan o'chirilishi kerak edi.

Cho'lponning ayblov bayonnomasi 1937-yil 16-dekabrda O'zSSR IIXK Apresyan tomonidan imzolaniib, dalil-isbotsiz o'zbekning buyuk shoiri bo'yniga O'zSSR JKning 64-, 67-, 58-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlar ilinadi. 1938-yil 3-oktyabrda mazkur qog'ozlar nomi aniq ko'rsatilmagan qandaydir SSSR pomprokurori tomonidan imzolandi. Vaholanki, oraliq vaqtda qanchadan qancha hukmga kiritilishi mumkin bo'lgan voqealiklar aniqlangan. Biroq, bizningcha, yuqoridagi qog'oz Markazning nazoratidan o'tkazib olingani uchun unga biror o'zgartirish kiritishga hech kimning haddi sig'magan. Eng qizig'i, dunyo tanigan insonning sudi qog'ozda ko'rsatilishicha, 1938-yil 5-oktyabr kuni soat 13:55 – 14:10 da “Uchlik” tomonidan o'tkazilgan. Cho'lponning o'zi esa 1938-yil 4-oktyabrda mahv etilgan edi...

Keyinchalik Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning ishi qayta ko'rib chiqiladi. Jarayonda O'zSSR Yozuvchilar uyushmasi tomonidan maxsus komissiya tuziladi. Oradan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa ham ayrim kimsalar Cho'lpon she'riyatidagi milliy ruh ufurib turgan nuqtalarni “aksilinqilobiy” isyon sifatida baholashda davom etishdan qaytmadilar.

1956-yil 9-mart kuni so'roqqa chaqirilgan Abdulla Qahhor o'z fikrini quyidagicha bayon etadi: “...Usmon Nosirning “Mehrim” to'plamidagi she'rlar hech qanday aksilsovet mazmuna ega emas, uning o'zi ham ajoyib shoir va tarjimon edi. Abdulla Qodiriyning “Obid ketmon” romani boshqa asarlaridan ko'ra bo'shqroq, lekin yomon asar emas. O'zbek yosh shoirlari Fitrat, Elbek, Botu, Cho'lponlarning she'rlari ham bari ajoyib yozilgan, ularning ham birortasiga aksilsovet asarlar deb baho berish kerak emas...”

Cho'lpon 1957-yil 1-avgust kuni SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan oqlanadi. Ammo qaysi aybi uchun jazolangani ochiqilnamaydi.

Cho'lponning pok nomi faqat mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'nggina xalqqa qaytarildi. Shoirning yubiley sanalari nishonlandi, Andijonda shoirning byusti o'rnatildi, Cho'lpon muzeyi ochildi. Keyingi yillarda ham bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilmoqda

Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Rahmatzoda Abdullayev – 1898-yil Qo'qon shahri Galchasoy dadasida tug'ilgan. 1918-yilgacha jadidlar maktabida, o'qituvchilar seminariyasida ta'lim olgan. Bir muddat Muhammadjon Xoliqovning yangi usul maktabida muallim yordamchisi bo'lgan. Turkiston muhtoriyati davrida Po'latjon Qayumov, Mahmudxo'ja Rizayev kabi ma'rifatparlar bilan birga faoliyat ko'rsatgan.

1920-yildan mahalliy gazetalarida faol muallif sifatida qatnasha boshlaydi. 1923-yildan “Yangi Farg'ona” gazetasi mas'ul muharriri, 1926-1927-yillarda “Zarafshon” va “Kambag'al dehqon” gazetalari muharriri vazifalarini bajaradi.

1930-yil 2-fevralda hibsga olingan. 1931-yil 25-aprelda OGPU tomonidan uch yil qamoq jazosiga hukm etilgan. 1933-yil 10-martda OGPU kollegiyasi tomonidan uch yillik surgunga jo'natiladi. R.Abdullayev 1957-yil 5-sentyabrda reabilitatsiya qilinadi.

Hamroqul qori Salohitdinov – 1891-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. O'qituvchilik bilan shug'ullangan. Jadidlar ilgari surgan ta'lim islohotini qo'llab-quvvatlagan.

U “Milliy istiqlol” tashkiloti a'zosi sifatida Afg'onistonga yashirinch o'tib ketish masalasi ko'rilgan majlisda ishtirok etishda, harakatdagi qurolli guruhlar bilan aloqadorlikda ayblanib, 1931-yil 17-yanvarda qamoqqa olinadi. Shu yilning 25-aprelida Hamroqul qorini OGPU kollegiyasi RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 11-moddasi bilan 10 yil muddat bilan konsentralizatsion lagerga jo'natadi. 1989-yil 3-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Abdulahat Ma'rufjonov – 1892-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Yirik savdogar bo'lgan. “Milliy istiqlol” tashkiloti safiga kirib, qatag'on qilingan tashkilot a'zolari va ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatib turgan. Jadidlar faoliyatini mablag' tomonidan qo'llab-quvvatlab, xayri-xohligini bildirgan.

1931-yil 17-yanvarda hibsga olinadi. Yuqoridagi qo'shimcha sifatida u Afg'onistonga yashirinch o'tib ketishga urinish, tashkilot vakillari uchun maxfiy yo'laklarni tashkil etishda ayblanib, RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-moddasi 4-bandi bilan 10 yillik konslagerga hukm etilgan.

Abduqayum Madalimov – 1882-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa ham milliy ozodlik harakati tarafdori bo'lgan. Hosili va mol-mulki bilan ma'rifatarparlar va vatanparvarlarning moddiy ta'minotiga hissa qo'shgan.

1929-yil 6-noyabrda hibsga olingan. Milliy ozodlik harakati a'zolariga tungi turg'un joy va oziq-ovqat berganlikda, soliq to'lamagan boylar guruhini yashirganlikda, sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganlikda va ularning siyosatini masxara qilganlikda ayblangan. U RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-moddasi 10-bandi, 59-moddasi 3-bandi, shuningdek, 60-moddasi 17- va 72-bandlari bilan 10 yil konslagerga jo'natilgan. 1989-yili reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,

professor
Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Dilshodbek HOMIDOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

(Davomi kelgusi sonida).



SAFARNOMA



Dunyoning yangi yetti mo'jizasidan biri – Tojmahal haqida ko'p o'qigandim va eshitgandim. Boburiy humdor Akbarshohning nabirasi Shoh Jahon tomonidan sevimli malikasi Mumtoz Mahalga atab qurilgan ko'zlarni qamashtiruvchi mahobatli dahma salkam besh asrdan buyon muhabbat ramzi bo'lib kelyapti. Bo'lganda ham, benazir, ulkan muhabbat ramzi!

Hindistonda boburiylar sulolasi tomonidan bunyod etilgan me'morchilik obidalarini ko'p – Qizil qal'a, Qizil masjid, Humoyun qal'asi, Akbar qal'asi... Lekin bu o'lkaga otlangan sayyoh ko'nglida avvalo Tojmahalni ko'rish ishq alanglanadi. Saodatli bir ayyomda kamina ham muhabbat va afsonalar yurtiga yo'l oldim.

Toj Mahalni ko'rish uchun uzundan-uzun, bir necha qator navbatda turar ekanman, yon-atrofimdagi yosh-u qarining ko'zida orziqish va quvonch uchqunlarini ko'raman.

Xorijliklar uchun o'rta qatordan alohida yo'lak ajratilgan. Har bir tashrif buyuruvchi sinchiklab tekshiruvdan o'tkazilar ekan. Men fotoapparatni olib qo'ymasliklaridan xursand bo'ldim. Demak, Tojmahalni suratga olish, uning manzarasida suratga tushish imkoni bor.

Qip-qizil darvozadan o'tib, qizil toshlar ustida qadam tashlab borar ekanman, ko'z o'ngimda quyosh nurida oppoq tovlanib turgan oq marmar bino – Tojmahal paydo bo'ladi. Unga uzoq-uzoq tikilaman. Mehr-muhabbat bilan tikilaman.

Tojmahal! Kuniga 70–80 ming odam ziyorat qilayotgan muhabbat ramzi! Ana, dunyoning turli tomonlaridan shu ishq ramzi oldida ahdlashuv uchun kelgan yuzlab yigit-qizlar bir Tojmahalga boqishadi, bir o'zlariga, ya'ni muhabbat to'la ko'zlariga boqishadi. Ular bir umrga vafoli yor bo'lishga ahdlashar

ekan, qalbidan joy olgan ishq xuddi Xurram va Arjumandbonuning buyuk muhabbati kabi bo'lishini orzu qilishadi. Oshiqlar orasida atrofda odamlardan sira uyalmay sevgi izhor qilayotgan ikki yoshni kuzataman. Aravachada o'tirgan ikki qariya esa, bir umr Tojmahal oldida muhabbat izhor etishni orzu qilgan ekan. Ular orzusiga yetishib, biri yoshlik davrini eslab, o'ylanib qolgan. Ikkinchisi esa Tojmahalni suratga olish bilan band.

Kimdir ortimda shivirlaydi: "Bir joyda o'qigandim, Tojmahal qurilishi uchun bugungi hisobda 100 million AQSh dollari miqdorida mablag' sarflangan!"

Men bu buyuk mo'jizani pulga chaqish mumkinmikan, deb o'ylayman. Tojmahalni asrash uchun 1983-yilda u YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganini xotirlayman. 2007-yilda Tojmahal dunyoning yangi mo'jizalaridan biri sifatida e'tirof etilgani ham yodimga tushadi.

Tojmahal bog'ida uzoq sayr eta turib, buyuk hind mutafakkiri, dunyoga dong'i ketgan adib Rabindranat Tagorning "Abadiylik yuzidagi ko'z yosh" deya Tojmahalga bergan ta'rifini takrorlayman.

"Muhabbat ramzi"ni o'z ko'zim bilan ko'rganimdan so'ng yiliga Hindistonga kelayotgan bir yarim milliard sayyohning nega ko'proq Agraga borishining, nega Tojmahalni ziyorat etishining sababini tushungandek bo'laman. Ha, aytganday, Hindiston davlati sayyohlar tashrifidan oz emas – yiliga naqd 2,5 milliard dollar foyda ko'radi-ya!

Tojmahal bilan xayrlashib ketib borar ekanman, ortimda ma'yus nigohni sezaman. Lekin endi abadiylik yuzidagi ko'z yoshiga qayrilib qarashga kuch topa olmayman...

O'rinboy USMON
Hindiston, Agra

ORAMIZDAGI ODAMLAR

MEHNATNING NONI TOTLI



Saodat SHERMATOVA,
"Toshshahartransxizmat"
AJ 8-avtobus saroyi
elektrobus haydovchisi:

– Ayol kishi birovning qo'lga qarab yo osmondan chalpak yog'ishini kutib o'tirmasligi kerak. Sog'ligi joyidami, kuch-quvvati bormi, harakatda bo'lsin: institutda o'qisin, ishlasin, hunar o'rgansin. Xoh aqliy, xoh jismoniy mehnat odamni toblar ekan. "O'tirgan – bo'yra" deb bejiz aytishmagan.

Ellik yoshga kirdim. Shu paytgacha birovdan ta'ma qilmadim. Afsus, sharoit bo'l-magani uchun oliy ta'lim olish nasib qilmadi. Taqdir ekan, hayotning baland-past yo'llaridan ikki bolam bilan yolg'iz yurishimga to'g'ri keldi. Shundayam tushkunlikka tushmadim. Tinchlik va sog'liq bo'lsa, odamda nolishga sabab qolmas ekan.

Bolalikdan haydovchilikka qiziqqanman. Ammo otanonam "Qiz bola temir-tersakka o'ralashib nima qiladi?", deb qo'ymagan. Keyinroq, baribir, rulga o'tirishimga to'g'ri keldi. Umr oqar suv ekan. Mana, yigirma yildan buyon sevimli kasbim bilan bandman. Turli texnikalarni boshqardim. Hozirda elektrobus haydovchisiman.

Har sahar odamlarni manziliga yetkazish uchun hissa qo'shayotganimni o'ylab, quvonch bilan ishga yo'l

olaman. Jamoat transportini boshqarishning mas'uliyati katta. Avvalo, avtobuslar osonlikcha "jilovi"ni sizga bermaydi, chambarakni burish uchun ham kuch kerak. Qolaversa, kuniga yuzlab yo'lovchi tushib-chiqadi, ularning kayfiyati, talab va istaklari turlicha. Barchasini hisobga olib haydash kerak.

Yo'lga qarash bilan birga salon tozaligi, ichki tartib ham xayolingizning bir chetida turadi. Injiq yo'lovchi uchrab qolsa, uni ham rozi qilish kerak. Chunki u aynan avtobus xizmatini tanladi, to'lov qildi, demak, iste'molchi sifatida haq-huquqlarini talab qilishga haqqi bor.

Odamlarni kuzatishni yaxshi ko'raman. So'nggi yillarda xalqimizning kayfiyati ijobiy tomonga o'zgardi. O'z ishimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, poytaxtning qator berk ko'chalari ochildi va odamlarning yo'li qisqardi, yo'llar mintazam ta'mirlanyapti va kengaytirilyapti, jamoat transporti harakati uchun qulayliklar joriy etilyapti. Yangi rusumdagi avtobuslar keltirilib, aholiga xizmat darajasi oshirilmoqda.

Ayniqsa, elektrobuslar jonning rohati, men sizga aytсам. Saloni keng va qulay, qishda issiq, yozda salqin, arzon va to'lov qilish oson, shovqinsiz harakatlanadi.

Shuning uchun ham ko'plab yurtodsharimiz shaxsiy ulovini qoldirib, jamoat transportida

harakatlanishni afzal ko'ryapti. Bu yo'lga kamtarona hissa qo'shayotganimdan faxrlanam.

Mehnatimga yarasha maosh ham olaman, albatta. Halol rizq bilan farzandlarimni voyaga yetkazdim. Ulardan umidim katta.

"Yolg'iz ayol yoki ona sifatida maxsus daftarlarga kiritaylik, moddiy yordam beraylik", deb kelishadi mas'ullar ba'zan. Rahmat aytib, qaytarib yuboraman. Chunki ishlayman, ro'zg'orni ta'minlashga yetadigan daromadim bor. Boqimandaga aylanib qolishdan qo'rqaman. Mehnatim bilan o'zimga ham, boshqalarga ham foyda keltirsam, shu mening baxtim.

Yo'ldagi odamman. Bir nuqtada qotib qolishni istamayman. Yurganim uchun sog'ligim ham, kayfiyatim ham yaxshi, tirikchiligim joyida. Barcha yo'ldagilarga safari bexatar bo'lishini tilab qolaman!

Yana kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Asablarim dam oladi, bahri dilim ochiladi mutolaadan keyin. Bolalarimga ham har maoshimdan kitob sovg'a qilaman. Ayniqsa, she'rlarni ovoz chiqarib aytсам ruhim yengil tortadi, o'zimda qandaydir qo'shimcha kuch his qilaman. Betakor shoirimiz Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi satrlarini doimo takrorlab yuraman:

*To'xtama, to'xtasang
tamom sen,
To'xtagan soatga o'xshama.
To'xtasang o'liksen,
tamomsen,
Yurganim uchunam
yaxshiman.*

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.



Ushbu QR-kodni skanerlang va ijtimoiy tarmoqlarda tomosha qiling!

TILBILIM

QO'SH TASHLAGAN CHO'PONMI yo MEHMION?



Agar fahmi kaltaroq mehmon mezbonnika besh-olti kun qolib ketsa, unga nisbatan xalq "bu mehmon falonchining uyiga besh kundan beri qo'sh tashlagan" degan gapni ko'llaydi. Xo'sh, qo'sh tashladi iborasi nimani anglatadi-yu, qo'sh so'zi qanday ma'noga ega?

Biz qo'sh so'zini ikki xil ma'noda, "juft, qo'sha" va "qo'shish" ma'nolarida tushunamiz. Masalan: *Er-u xotin qo'sh ho'kiz yoki Qo'shgani bilan qo'sha qarisin.*

Lekin bu yerda qo'sh so'zi boshqa mazmunda keladi. "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" kitobining 2-tomida qo'sh so'ziga shunday izoh berilgan: "Safar yoki jang paytida vaqtinchalik qo'nib dam olinadigan joy". Demak, bir joyda qo'shning qo'sh tashlashi qo'sh so'zi bilan ifodalangan.

Shuningdek, cho'ponlar yashaydigan uch oyoqli kapa yoki cho'ponlar chaylasi ham qo'sh so'zida ma'nolangan. Bunga cho'ponlarning doim yaylovdan yaylovga, qishlovdan yozlovga ko'chib yurishi sabab bo'lgan. Qayda o't mo'l bo'lsa, cho'ponlar o'sha yerga qo'sh tashlab, suruvlarini to'ydirib olgach, yana boshqa adirlarga ko'chib ketaverishgan.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Kecha bir ukamiz shunday deb qoldi:

– Opa, hozir 17-18 yoshida turmushga chiqayotgan qizlarning ko'pchiligi ajrashib ketyapti. Tug'ruqqa tayyorlash bo'limida yotgan yosh juvonlardan aksarining boshi ochiq. Bu degani tinch-omon, to'kin-sochin zamonda qanchadan qancha go'dak tug'ilmasidan otasidan ajralib qolyapti. Shu qizlarga nima ekan, balog'atga yetgan zahoti oila qurib? O'qimaysanmi institutlarga kirib, til o'rganib olmayсанmi...

Bu gaplarni eshitib, buning ildizi qayerga borib taqalishi haqida o'ylab qoldim. Yoshlarga yorqamasa ham gap instagram-u tik-tokka bo'lib qolyapti.

Tarmoqlar bizga shunday avlodni "tarbiyalab" beryaptiki, hali beli og'rib bir so'm topmagan oyimtilalar mahrga "Gelik" so'raydigan bo'ldi. So'rasangiz na mahrmning, na nikohning qoidasini tushunadi ko'pi. To'g'ri, mahr so'rash qizning ixtiyori, unga loyiq bo'lish esa majburiyati.

18–24 yoshdagi o'g'illarnim, ukalarnimning hamyoniga bir qarab qo'ying. Unda qimmatbaho buyumlar olib berishga yetadigan pul bormi? O'qiyotganlari mayli-ku, ishlayotganlari ham shaxsiy xarajati, ro'zg'orga tekkan foydasidan orttiradimi?

Vaqt kelsa yo'lkiraga ham uydagilardan pul olib yurgan bo'ydoqlar gelikparast, romantikaxo'r, alohida yashashga ishtiyokmand hurliqtadiga nima bera oladi? O'zini malikaday tutadigan (chet eldagi ba'zi malikalarning sipoligi ma'lum va mashhur) qizlarning orzusini amalga oshiraman deb yigitlarning sillasi qurib qolmayaptimi?



“Jonon” bo‘laman deb...

Egri qadam qo'yishiga ham shu narsalar sabab bo'lib qolmayotganiga kim kafolat beradi?

Ayb faqat qizlarda emas, ular osmondan shu dunyoqarash bilan tushmagan. Ularni tarbiyalagan (yoki tarbiyalamagan) otanonalar, pul ishlab qolish uchun tarmoqlarda yoshlarning kibr-u havosini ko'pirtirayotgan bloger-u vaynerlar-u vaysaqilar ham bunda barobar aybdor.

Yigitlar ham kuyovko'ylakdekkinaga oppoq emas. Erkaklar orasida juda yaxshi gap bor: oyoqqa turib olish. Buni kitobiy qilib, yigitlarni ham ruhan, ham jismonan oilaga tayyorlash deymiz. Bo'lajak erga halol mehnat, oilaga fidoyilik, ayoliga sadoqat bilan birga oriyat, g'urur, jasoratni ham o'rgatish kerak. Faqat to'yga pul topib, uylanishni emas, oilani saqlab qolish, uni mustaqil boshqarish ko'nikmasini ham singdirsin otasi, amakitog'lari.

Aks holda nima bo'ladi? Kelinposhsho umrida yuzma-yuz ko'rishmagan vaynerlarning hashamatli, baxtli ko'ringan hayotini orzulab eridan shuni talab qiladi. Bu talabga

erning kissasi-yu istagi qanday javob qaytaradi? Hamma balo shunda. Keyin homilador bo'lib, "Gelik"ka boshqorov'i kelin uyda naq uchunchi jahon urushi olrovini yoqib, muzaffar generalday onasinekiga yo'l oladi yoki yo'llanadi. Chunki onalarimiz farzandlarining haddi a'losiga yetgan injiqliklarining bosh rahnamosi va rejissyori...

Agar shu yigit-qizlar 17-18 yoshda emas, qo'lga diplom olib oila qurganida, befoyda hoyu-havaslarini bosilgan, hayotga sovuqqon aql bilan qaraydigan, baxtni ham, naqdni ham qadriga yetadigan juftlikka aylanardi.

Ha-ya, tarmoqlarda o'zlarini baxtiyor er-xotin qilib ko'rsatayotganlar kunora uyiga "uchastkavoy" chaqirib turishini, u uylar, u dabdabalar yaltiroq, ko'rgazmali bir dekoratsiya ekanini anglagan bo'lardi.

O'sha mashhur qo'shiqda aytilganday, jonon bo'laman deb, hammani kuydiraman, deb o'zingiz kuyib qolmang yana, qizlarjon.

Madina MO'MINOVA
Facebook

Jadid
adabiy, diniy-ma'rifiy va ijtimoiy baholali gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 100
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 447
Lotin yozuvida – 11 653
Media kuzatuvchilar – 94 236
Buyurtma: G – 840.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz